

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI**  
**GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”**  
**Tabiatshunoslik va Geografiya**  
**fakulteti dekani**

\_\_\_\_\_ b.f.n. G'.Qodirov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2013 y

5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo’nalishi bo’yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**AHOLI MANZILGOHLARI HUDUDIIY TUZILMASINING IJTIMOIIY –**  
**IQTISODIIY MUAMMOLARI**

mavzusida bajarilgan

## **BITIRUV MALAKAVIIY ISHI**

**Bajaruvchi: HABIBULLAEVA MASTURA**

**Ilmiy rahbar: o’qituvchi Haydarova S.**

**BMI “Geografiya va uni o’qitish metodikasi”**  
**kafedrasi yig’ilishining \_\_\_\_\_ 2013 y.**  
**№\_\_ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.**

**Kafedara mudiri:**

**g.f.n. Q.Hakimov**

**JIZZAX-2013**

## **M U N D A R I J A**

|                                                                                                          |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH</b>                                                                                            | <b>Bet</b> |
|                                                                                                          | <b>3</b>   |
| <b>I BOB    AHOLI MANZILGOHLARI HAQIDA UMUMIY<br/>TUSHUNCHA</b>                                          |            |
| 1.1    SHahar va qishloq aholi manzilgohlarining umumiy<br>tavsifi.....                                  | <b>6</b>   |
| 1.2    Aholi manzilgohlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik<br>omillar.....                       | <b>12</b>  |
| <b>II BOB    AHOLI        MANZILGOHLARINING        HUDUDIIY<br/>TUZILMALARI VA ULARNING RIVOJLANISHI</b> |            |
| 2.1    Qishloqlar tizimining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi<br>geografik omillar.....               | <b>21</b>  |
| 2.2    SHaharlarning rivojlanishi va ularning ahamiyati.....                                             | <b>28</b>  |
| 2.3    SHahar va qishloqlarning o'zaro ta'siri, umumiy va xususiy<br>muammolari.....                     | <b>32</b>  |
| <b>III– BOB    AHOLI MANZILGOHLARI HUDUDIIY<br/>TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b>            |            |
| 3.1    Aholi manzilgohlarining hududiy va ijtimoiy muammolari va<br>ularni hal etish masalalari.....     | <b>43</b>  |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                       | <b>48</b>  |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                           | <b>51</b>  |

## KIRISH

Aholi punktlarining vujudga kelishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotidagi jarayonlarni oydinlashtiruvchi masalalardan biridir. Kishilik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bosqichlaridagi xususyaitlar shaharalar va qishloqlarning vujudga keliishi va rivojlanishi bilan bog'liq kechadi. Aytish mumkinki, aholi punktlarining shakli, ko'rinishi va xususiyatlari taraqqiyot bosqichlarini o'zida aks ettiradi.

Tabiat va inson o'rtasida aloqadorlik yashash hududini tanlash va moslashishdan boshlanadi. Xo'jalik faoliyatining shakllanishi va tizimining yaratilishi aholi manzilgohlarining rivojlanishiga muvofiq davom etadi. Binobarin tabiiy omillar kishilarning yashash hududlariga doimo ta'sir ko'rsatadi va aholi punktlarining shakllanishi, rivojlanish yo'lini belgilab beradi.

Turli tabiiy sharoitga ega hududlarda yashovchi kishilarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni turlicha bo'lishi tabiat kuchlari va resurslarni o'zlashtirish, o'zgartirish darajasi bilan belgilanadi va ularning joylashuv tizimlarida o'z aksini topadi. SHunga ko'ra turli tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga ega hududlarda aholi punktlari o'ziga xos tarzda va ko'rinishda shakllanadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi atrof muhitga mos va muvfiq kelishi taqozo qilinadi, aks holda aholining kundalik hayotida noqulayliklar yuzaga keladi. SHuning uchun ham turli sharoitda yashovchi va xo'jalik yurituvchi aholi tabiiy sharoitga mos materiallar va shakllarga ega aholi punktlarini bunyod qiladilar. Ularning turli sharoit va davrlarda qay darajada rivojlanib borishi va yer yuzida, shu bilan birga O'zbekiston hududida mavjud aholi punktlarida namoyon bo'lishini tadqiq qilish dolzarb masaladir. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida aholi manzigohlarining shakllanishini tahlil qilish nazarda tutilgan bo'lib, ishni bajarish jarayoniga qo'yilgan asosiy maqsadlar:

- ✚ Yashash hududlar bo'lgan aholi punktlarining shakllanish jarayoni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish;
- ✚ Yer yuzida turli tabiiy sharoitga ega hududlarda aholi punktlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy omillarni o'rganish;
- ✚ Zamonaviy aholi punktlarining rivojlanishida tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning o'rnini tahlil qilish kabilardir.

Biiruv malakaviy ishini bajarishda turli adabiyotlar, statistik manbalar, geografik xaritalar va boshqa manbalardan foydalanib, quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- ✓ Yer yuzida, jamiyat taraqqiyotida aholi punktlarining shakllanishi jarayonlari va unga ta'sir etgan tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tahlil qilish;
- ✓ Turli aholi punktlari, xususan qishloqlarning vujudga kelishi, ularning tabiiy geografik hududlarda shakllanish jihatlari va tafovutlarini o'rganish;
- ✓ Turli aholi punktlarining o'zaro farqlari va bu farqlar asosida aholi xo'jalik faoliyatidagi ahamiyati;
- ✓ Yer yuzida aholining joylashuv hududlari va hududiy taqsimoti va uning sabablari;
- ✓ Aholi taqsimotida tabiiy omillar; iqlim, rel'ef, suv havzalari, qirg'oq chiziqlari, tabiiy resurslar va tabiat zonalarining o'zni va ahamiyati;
- ✓ Er yuzida aholi punktlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy omillarning hududiy tafovutlari;
- ✓ O'zbekiston aholi punktlarining tasnifi va o'zgarish ko'rsatkichlari;
- ✓ Tabiat va jamiyat aloqadorligida aholi punktlarining o'zni va ahamiyatining o'zgarishlari kabilar tahlil qilinadi va tavsiflanadi.

Bitiruv malakaviy ishi 3 bob, kirigsh va xulosa qismidan iborat bo'lib, birinchi bobda aholi punktlarining umumiy tavsifi berilib, unda shahar va qishloq aholi manzilgohlarining umumiy xarakteristikasi va aholi manzilgohlari

rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar haqidagi umumiy tushunchalar bayon qilinadi. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida aholi punktlarining shakllanishi va ularga ta'sir etuvchi omillar, shahar aholi punktlarining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, zamonaviy aholi punktlariga shahar maqomini berish mezonlari, qishloqlar va shaharlarni hududiy tasniflash mezonlari haqida so'z yuritiladi va O'zbekistong aholi punktlarining tasnifi bo'yicha ma'lumot beriladi.

Ikkinchi bob aholi manzilgohlarining hududiy tuzilmalari va ularning rivojlanishi deb ataladi va qishloqlar tizimining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar, shaharlarning rivojlanishi va ularning ahamiyati, shahar va qishloqlarning o'zaro ta'siri, umumiy va xususiy muammolari haqidagi fikrlar bayon etiladi. Er yuzida urbanizatsiyaning rivojlanishi va alohida shaharlar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Uchinchi bobda aholi manzilgohlari hududiy tuzilmalarini rivojlantirish istiqbollari, hududiy va ijtimoiy muammolari, ularni bartaraf etish masalalari haqida ma'lumot va tahlillar keltiriladi. O'zbekistonda shaharlarni rivojlantirish masalasi bo'yicha mulohazalar bildiriladi. SHu bilan birga tabiat va jamiyat aloqadorligida aholi punktlarining o'rniga alohida to'xtaladi.

Ishni bajarishda ko'rib o'tilgan masalalar turli statistik ma'lumotlar asosidagi jadvallar, chizmalar, diagrammalar bilan to'ldirilgan.

## **I - BOB. AHOLI MANZILGOHLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA**

### **1.1. SHahar va qishloq aholi manzilgohlarining umumiy tavsifi**

Kishilik jamiyati rivojlanishining ilk davrlari ya'ni ibtidoiy jamoa, urug'-jamoa davrlarida odamlarning turar joylari mehnat turlarining murakkablashuviga mos ravishda o'zgarib borganligi ma'lum. Ibtidoiy tuzum ovchilari va terib-termachlab oziq topuvchi to'dalar uchun g'or yoki tasodifiy boshpanadan boshqa turar joy bo'lmagan. Muqim turar joy uchun zaruriyatning yo'qligi shu bilan tushuntiriladiki, ovchilar va oziq yig'uvchilar faqat mavjud oziqlardan foydalanib, doimiy ravishda ko'chib yurishga majbur bo'lganlar, buning ustiga topilgan barcha oziq-ovqat o'rtada iste'mol qilingan. Binobarin oilaviy, qarindoshchilik munosabatlari ham to'la rivojlanmagan edi. Oilaviy munosabatlar kishilarda xo'jalik faoliyatining boshlanishiga asosiy omil bo'lgan deb xulosa chiqarish mumkin. Odamlarning yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatishi natijasida chorvachilikning paydo bo'lishi, terib olingan o'simlik urug'larini ko'paytirish usuli orqali dehqonchilikning shakllanishi, an'anaviy ovchilik va terib oziq topishdan ko'ra ko'proq oziq to'plashga imkon bera boshlagan. Kishilarning uzoq masofalarga ketmasdan turib oziq topa olish imkoniyati ularning doimiy turar joylarda istiqomat qilishlariga sabab bo'lgan. Agar chorvachilik mavsumiy ko'chmanchilikning saqlanib turishiga sabab bo'lgan bo'lsa, dehqonchilik kishilarning unumdor yerlarda doimiy yashashlariga olib keldi. Dehqonchilikning turli hududlarda chorvachilikdan keyin shakllanganligi doimiy turar joylarning atalishida ham ko'rinadi, xususan turkiy tildagi "qishloq" so'zi "qishni o'tkazadigan joy" ma'nosini beradi. Forsiy tildagi "dehqon" so'zi aslida ekin ekish bilan shug'ullanadigan kishi emas balki bir joyda muqim yashovchi kishi ma'nosida ishlatilgan.

Ilk qishloqlar ya'ni odamlarning muqim turar joylari yirik daryolar deltalarida xususan Nil, Dajla, Frot, Gang daryolarining quyi oqimlarida vujudga kelganligi ma'lum. Chunki bu hududlarda turli ekinlarni yetishtirish va mo'l hosil olishga

imkoniyat katta edi. Keyinchalik qadimgi tsivilizatsiya o'choqlari bo'lgan yirik davlatlarning tarixi ham shu hududlar bilan bog'liq.

Ijtimoiy mehnat turlarining xilma-xillashuvi kishilik jamiyati rivojlanishining asosiy omilidir. Qadimgi odamlar tirikchilik uchun qulay joylarni tanlab qishloq qurganlar. Bu o'rinda qishloqlar planirovkasi, arxitekturasi, qurilish materiallari turlarining tanlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida to'xtalib o'tish zarur.

Ularga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir:


1. **Tabiiy geografik sharoit.** Kishilarning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji tuganmas bo'lgani uchun ilk qishloqlarda bu omil uncha e'tiborga omlinmagan bo'lishi mumkin. Chunki tabiiy geografik sharoit qanday bo'lmasin odam o'ziga oziq-ovqat topa olar ekan tabiiy sharoitga ko'nikaveradi va yashab qoladi. Buni sovuq va juda issiq o'lkalarda ham istiqomat qilayotgan va boshqa tomonga ketishni xayoliga ham keltirmayotgan xalqlar misolida ko'rishimiz mumkin. Lekin har holda har qanday tabiiy sharoitli o'lkalarda ham kishilar muqim turar joylarini bunyod qilishda ushbu hududga xos tabiiy sharoitni hisobga oladilar. Chunki, shamol va yomg'ir yo'nalishi, gidrogeografik va relef sharoiti albatta kishilarning turar joylari uchun mutanosib o'rinda bo'lishi talab etiladi.
2. **Tabiiy resurslar, materiallar.** Qishloqlarning bunyod qilinishida eng muhim omillardan biridir. Kishilarning birlamchi ehtiyojlarini qondiruvchi unumdor er, suv, o'rmon, tog' va shu kabi oziq-ovqat topish hamda uy qurish uchun materiallar manbai bo'lgan hududlar ilk qishloqlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan va bu omillar bugungi kunda ham eng muhim hisoblanadi.
3. **Mehnat turi.** Bu omil alohida genetik va funktsional tipdagi aholi punktlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Oziq-ovqat topishi alohida resurslarga bog'liq, masalan dengiz bo'yi va orollarda istiqomat qiluvchilar dengiz resurslari bilan butunlay bog'langanlar, binobarin ularning qishloqlari asosan dengizda baliq yoki boshqa turdagi jonivorlarning ko'p

to'planadigan joylariga yaqin hududlarda bunyod qilingan. SHuningdek aholi zich joylashadigan unumdor tuproqli hududlarda mehnat qurollari va boshqa uy-ro'zg'or hamda hasham buyumlariga ehtiyoj doimiy talab qilinadigan hududlarda alohida hunarmandlar qishloqlari vujudga kelgan.

4. **Ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar.** Bu omil ham aholi zich joylashgan hududlarda kuchli ta'sirga egadir. Iqtisodiy boylikning to'planishi va taqsimlanishi ijtimoiy munosabatlarni murakkablashtirib, kishilarning tabaqalarga bo'linishiga sabab o'ladi va ularning yashash hududlarini ham alohidalashtiradi. Binobarin muayyan tabiiy sharoit yoki o'ringa ega bo'lgan hududlarda alohida toifadagi kishilarning yashashi majburiy tarzda belgilanib qoladi. Bu ilk davlatchilik rivojlangan qadimgi davlatlarda ayniqsa sezilarli bo'lgan. (Hindiston, Xitoy, Misr)

1-chizma

### **Qishloqlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**



Ta'kidlash joizki dunyoning barcha regionlarida muqim turar joy sifatidagi qishloqlar bir xil tarzda shakllanmagan. Umuman qishloq tushunchasi turli xalqlar nuqtai nazaridan nisbiydir. Masalan, qadimgi Yevropa hududlaridagi o'rmonlarda kezib yuruvchi qabilalar muqim turar joylarini mustahkamlangan oddiy istehkom yoki qal'a shaklida bunyod qilishgan. Bu Rim imperiyasining ta'sirida ro'y berdi,



shuning uchun ham G'arbiy Yevropa hududida shaharlar asosan kichik hajmdagi qal'alar sifatida vujudga kelgan. Osiyo qit'asida qadimgi davlatlarda qishloqlar doimiy dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining yashash hududi sifatida shakllandi. Savdo yo'llari yoki qulay geografik o'rin bu qishloqlarning shaharga aylanishiga sabab bo'lgan. Aholi punktlarining qishloq shakliga zamonaviy yondashuvlar turlichadir. Bu mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

Ta'kidlash zarurki, shaharlar yoki shahar tipidagi posyolkalar kategoriyasiga kirmagan barcha aholi punktlari umuman qishloq aholi punktlari sanalgani bilan, ularning orasida katta printsipliy farqlar mavjud. Bu farqlar aholining asosiy mehnat faoliyati bilan bog'liqdir. Aholining mehnat faoliyatiga ko'ra qishloq aholi punktlari quyidagi turlarga bo'linadi:

| <i>qishloq xo'jalik qishloqlari</i>                       | <i>qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmagan aholi punktlari</i>                                                               | <i>Aralash funktsiyali qishloqlar</i> |
|-----------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------|
| • <i>aholisi asosan qishloq xo'jaligida band bo'ladi.</i> | • <i>aholisining ko'pchiligi boshqa sohalarda: sanoat, transport, xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan qishloqlar.</i> | • <i>industrial-agrar posyolka</i>    |

Qishloqlar haqida so'z yuritilganda, qishloq so'zining kelib chiqish tarixining muayyan hudud aholisining turmush tarzi, mehnat faoliyati bog'liq ekanligini hisobga olish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham turli mamlakatlarda qishloq tushunchasi ostida turli shakl va funktsiyaga ega bo'lgan aholi punktlari birlashadi. Bu turli tipdagi aholi punktlari o'z shakli va funktsiyasi bilan bir-biridan katta farq qilsada, ulardagi aholining turmush tarzi bir-biriga yaqin turadi. Binobarin turli mamlakatlarda qishloq tushunchasining atamaları ham har xildir. Bunday farqlarga ega bo'lgan aholi punktlarini o'rganish natijasida muayyan

mamlakatlar aholisining mehnat taqsimoti, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

SHaharlar kishilik jamiyatining ilk davrlar bo'lgan antik davrlarda yuqori darajada shakllanib, jamiyat taraqqiyotida katta o'rin tutgan. Antik davr davlatchiligida shaharlar markaziy o'rin tutib, aholi punkti sifatida emas davlatlar negizi sifatida maydonga chiqadi. Misr, YUnoniston, Rim va Old Osiyo mamalakatlari shaharlarning rivojlanishi tufayli kuchli taraqqiy etgan davlatlarga aylangan. SHaharlar inqirozi esa, bu davlatlarning parchalanishiga va hatto yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lgan.

SHaharlar ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan aholi punktlari bo'lib, ularning bunyod qilinishida qishloqlarga nisbatan turli tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda eng muhimi strategik qulaylik sharoitlari talab etiladi. Aytish mumkinki, ba'zi hollarda bu talablardan eng muhimi muayyan bitta omilga bo'ysinadi.

SHaharlarning shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyotida yangi yo'nalishlarni ochib beradi. Barcha yangiliklar, o'zgarishlar, tushuncha va munosabatlar shaharlarda paydo bo'ladi. Arxitektura, yozuv, siyosiy munosabatlar, ilm-fan taraqqiyoti shaharlar tushunchasi bilan bog'liqdir. Qadimiy shaharlardagi binolar, shakllar turli tarixiy davrlar qiyofasi haqida ma'lumot beradi va bugungi kunda shaharlarning rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Turli tarixiy davrlarda shaharlarning ahamiyati u yoki bu darajada o'zgarib turgan bo'lsada, ular yirik aholi punktlari, asosiy ishlab chiqarish va savdo tugunlari, strategik ahamiyatga ega bo'lgan nuqtalar, poytaxtlar kabi vazifalarni bajarib kelgan.

SHaharlarning tarixiy ahamiyati shundaki, turli davrlarda xalqlarning milliy shakllanishi madaniy va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. Binobarin shaharlarning vujudga kelishi va shakllanishida xalqlarning rivojlanish yo'nalishlari namoyon bo'ladi.

SHaharlar, aholi punkti va ijtimoiy hodisa sifatida turli tarixiy davrlarda jamiyat taraqqiyotida alohida o'rinlarga ega bo'lgan. Xususan:

- ✓ SHaharlar davlat negizi sifatida (Bobil, Afina, Rim va h.k.)
- ✓ SHaharlar ijtimoiy siyosiy g'oyalar markazi (Quddus, Makka)
- ✓ SHaharlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanish markazlari sifatidagi o'rni (Samarqand, Buxoro, Istambul, Parij, Sankt - Peterburg va b.)
- ✓ SHaharlar milliy tiklanish, davlatchilik markazi (Kiev, Moskva, Novgorod, Dehli)

SHunday o'rin xususiyatiga ega bo'lish orqali shaharlar jamiyat taraqqiyotining yangi yo'nalishlarini binobarin insoniyat tarixining o'zgarishlar bosqichini yuzaga keltirgan deyish xato bo'lmaydi. CHunki insoniyat tarixining o'zgarishlari muayyan hududda, xususan shaharlarda ro'y beradi.

Hozirgi zamonda shaharlar mamlakat iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishining asosiy hududlaridir. SHaharlarning iqtisodiy geografik o'rni va xususiyatlari rivojlanishga ta'sir etuvchi omillardan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Qadimgi shaharlarning vujudga kelishida asosan ikkita omil muhim o'rin tutgan.

### **1. Savdo-sotiqning rivojlanishi;**

### **2. Strategik maqsadlar.**

SHaharlar asosiy xalqaro savdo yo'llariga xizmat qilish nuqtalarida vujudga keladi. Bunday shaharlarning vujudga kelishi uchun asosiy omil savdo-sotiq uchun qulay sharoitdir. SHaharlarning savdo sotiq omili ta'sirida vujudga kelishi qadimda Osiyo qit'asi uchun xarakterli bo'lgan. CHunki eng yirik savdo yo'llari Osiyo qit'asida edi.

SHaharlarning strategik maqsadlarda vujudga kelishi eng avvalo shahar va shahar aholisini dushmandan himoya qilishga asoslanadi. Bunda shaharlar bostirib kelayotgan dushmanni to'xtatib qoluvchi yagona to'siq bo'ladi. SHaharlarni barpo etishda bunday maqsadning bosh omil bo'lishi jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy va

siyosiy munosabatlarning o'ziga xos shakllanishi natijasidir. O'rta asrlar Yevropasida siyosiy va ijtimoiy beqarorliklar hukm surishi o'sha davr Yevropa shaharlarining vujudga kelishida ushbu omilning bosh maqsad sifatida qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

Zamonaviy shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omil iqtisodiy geografik rayonlashtirish bilan bog'liq. Resurslardan foydalanish va mehnat resurslarini joylashtirish, mamlakatda iqtisodiy rayonlarni shakllantirish masalalari shahar bunyod qilish va shaharsozlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Dunyo mamlakatlarida aholi punktlarining shahar maqomini olishlari uchun mezonlarning turlicha darajasi qabul qilingan, lekin asosiy ko'rsatkich aholi miqdori bo'lib qolgan. Shahar maqomini berishda aholi sonidan tashqari, aholining ishlab chiqarishdagi bandligi, xususan sanoat va noishlab chiqarish sohasidagi ulushi ham asosiy mezonlardir. Turli mamlakatlarda bu mezonlar darajasining har xilligi mamlakatlardagi yashash sifati va darajasi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan: Rossiya Federatsiyasida aholi soni 12 mingdan oshgan va aholining 80% sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi punktlari shahar maqomini oladi. Bunday ko'rsatkichlar Yevropa mamlakatlarida ham har xil bo'lib, mamlakatdagi ishlab chiqarish sohalari xususiyatlari va aholi punktlari haqidagi tushunchalariga bog'liq.

## **1.2. Aholi manzilgohlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar**

O'zbekistonda aholi punktlari qadimdan tabiiy sharoiti odamlarning xo'jalik faoliyati eng qulay bo'lgan hududlarda shakllangan va rivojlangan. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari hududiy jihatdan notekis taqsimlanganligini hisobga olinsa, aholi punktlarining hududiy taqsimotida ham shunday notekisliklar mavjudligi haqida xulosa qilinadi. Aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishiga tabiiy sharoit va resurslarning ta'sirini tahlil qilish

uchun hududning tabiiy sharoiti haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi joylashgan hududning tabiiy sharoiti umumiy tarzda dunyo okeanidan uzoqda joylashganligi, keskin kontinental iqlimga ega, qurg'oqchil, er yuzasining tuzilishi bo'yicha 78,7% qismi tekisliklar va 21,3% qismi tog'liklardan iborat, tekisliklarining katta qismini qumli va sho'r tuproqli cho'llar tashkil qiladigan hudud sifatida tavsiflanadi. SHuningdek, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolar va ularning irmoqlarining xo'jalik tizimi shakllanishi, binobarin aholi punktlarining rivojlanishidagi ahamiyati juda katta ekanligi ta'kidlanadi. Aholi xo'jalik faoliyati va joylashuv tizimlari qadimdan ushbu daryolar havzalarida shakllangan va barcha yirik shaharlar, aholi zich va gavjum joylashgan qishloqlarning tarixi ana shu daryolar bilan bog'liqdir. SHu bilan birga ta'kidlash joizki, hududda aholi punktlarining shakllanishiga tabiiy sharoit va resurslarning ta'sirini o'zaro bog'liqlikda va kompleks ta'sirga ega deb tasavvur etish kerak.

O'zbekiston hududida aholi punktlarining rivojlanish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Mamlakat tarixida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan qadimiy shaharlar, ko'p yillik tarixga ega qishloqlar bilan birgalikda, turli davrlar siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tamoyillari asosida bunyod bo'lgan, o'sha davrlar ruhini o'zida aks ettiruvchi aholi punktlari ham mavjud. Ayniqsa, sobiq ittifoq davri mamlakatda yangicha ko'rinishdagi aholi punktlarining bunyod qilinishi, qadimiy shaharlarning yangicha qiyofaga kirishiga olib keldi. Aholi va mehnat resurslarini joylashtirish, yangi o'zlashtirilgan hududlarga jalb qilish masalasi ko'plab qishloq va shaharlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Binobarin, mamlakatda XX asr davomida aholi joylashuvining o'ziga xos rang-barang tizimlari shakllandi.

Mustaqillik yillarida sanoat taraqqiyoti, aholi turmush tarzining bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos o'zgarishlari aholi punktlarining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy – hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 120-sonli maxsus qarorini<sup>1</sup> amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy – hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 68-sonli Qarori qabul qilindi. Bu qaror asosida ayrim qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomini berish va aholi punktlari toifalarining o'zgartirilishi bilan bog'liq ijtimoiy – iqtisodiy va huquqiy tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi qayd etildi. Ushbu qaror va uning asosida o'tkazilgan tadbirlar mamlakatda aholi punktlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda yangi bosqichni boshlab beradi. Aholi punktlari va ularda istiqomat qiluvchi aholining xo'jalik tarzi, hamda yashash darajasini o'zgartirish, aholi hayoti bilan tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish tarzining muvofiqligiga to'la erishish bu bosqichning asosiy maqsadi bo'lib qolishi lozim.

Qarorning amalga oshirilishi natijasida 2009 yildan mamlakatda qishloqlar soni umumiy 11831 tadan 10865 taga kamaydi va shaharchalar soni esa 114 tadan 1080 taga ko'paydi. Shaharlar soni 119 tani tashkil etgani holda urbanizatsiya darajasi 35,8% dan 51,7% ga ko'tarildi. Ta'kidlash kerakki, shaharcha maqomi berilishida mintaqalarning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatiga e'tibor qaratilgan. Viloyatlar bo'yicha ularning soni turlicha bo'lib, "yangi shaharchalar asosan, qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan, aholi zich joylashgan hududlarda ko'proq vujudga kelgan. Ekstensiv chorvachilikka ixtisoslashgan, ijtimoiy va demografik sig'imi past bo'lgan mintaqalarda esa ularning soni juda oz" (A. Soliev, M. Nazarov. "O'zbekiston qishloqlari" T. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009 yil. 22-bet.)

Aholi joylashuv tizimlarining hududiy tashkil topishi va tabiiy – xo'jalik rayonlari bo'yicha taqsimoti masalasi hudud aholisining demografik, iqtisodiy va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами. Т. 2005 йил, июль, № 28-29

ijtimoiy rivojlanish jarayonida har doim dolzarb bo'lib qolaveradi. Binobarin, aholi punktlarining viloyatlar va iqtisodiy rayonlar tabiiy hududlari bo'yicha taqsimoti, o'zaro aloqadorlikda shakllanishi, tabiiy sharoitga muvofiq ravishda rivojlanib borishini doimiy kuzatish va nazorat qilish zarur deb o'ylaymiz. Ayniqas ekologik muammolar tobora o'tkirlashib borayotgan hozirgi kunda aholi punktlarini nafaqat kishilar istiqomat qiluvchi ob'ekt deb, balki atrof – muhit o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omil deb qarash joizdir.

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha aholi manzilgohlari haqida ma'lumot (2012 yil)

| Mintaqalar                      | SHaharlar soni | Jamiga nisbatan % | SHahar chalar soni | Jamiga nisbatan % | Qish loqlar soni | Jamiga nisbatan % |
|---------------------------------|----------------|-------------------|--------------------|-------------------|------------------|-------------------|
| O'zbekiston Respublikasi (jami) | 119            | 100               | 1080               | 100               | 10865            | 100               |
| SHu jumladan:                   |                |                   |                    |                   |                  |                   |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 12             | 10,1              | 27                 | 2,5               | 1172             | 10,7              |
| Viloyatlar                      |                |                   |                    |                   |                  |                   |
| Andijon                         | 11             | 9,2               | 89                 | 8,2               | 458              | 4,2               |
| Buxoro                          | 11             | 9,2               | 62                 | 5,7               | 1459             | 13,4              |
| Jizzax                          | 6              | 5                 | 43                 | 3,9               | 520              | 4,8               |
| Navoiy                          | 6              | 5                 | 38                 | 3,5               | 594              | 5,4               |
| Namangan                        | 8              | 6,7               | 120                | 11,1              | 403              | 3,7               |
| Samarqand                       | 11             | 9,2               | 88                 | 8,1               | 1873             | 17,2              |
| Sirdaryo                        | 5              | 4,2               | 21                 | 1,9               | 268              | 2,4               |
| Surxondaryo                     | 8              | 6,7               | 114                | 10,5              | 740              | 6,8               |
| Toshkent                        | 16             | 13,4              | 97                 | 8,9               | 875              | 8,0               |
| Farg'ona                        | 9              | 7,5               | 206                | 19,0              | 993              | 9,1               |
| Xorazm                          | 3              | 2,5               | 58                 | 5,3               | 561              | 5,1               |
| Qashqadaryo                     | 12             | 10,1              | 123                | 11,3              | 945              | 8,6               |

Jadval O'zR. Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

So'nggi yillarda respublikamizda aholi punktlarining hududiy rivojlanishiga turli darajada e'tibor qaratilmoqda. Aholining turmush tarzini yaxshilash, barcha qulayliklar bilan ta'minlash maqsadida er uchastkalari ajratilmoqda, shahar va qishloqlarda zamonaviy turar joylar qurilmoqda. Ayni jarayon aholi punktlari tizimining hududlarda mutanosib shakllanishini tadqiq qilishning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Jadvalda keltirilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, viloyatlar bo'yicha shaharlar soni Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Andijon va Buxoroda 10 dan ortiq bo'lib, ular qatoriga Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiradi. Shaharlar aholi punktlari Jizzax, Navoyi va Xorazm viloyatlarida eng kam deyish mumkin. SHuningdek shaharchalar soniga tegishli raqamlar nisbatida ko'rini turibdiki 100 tadan ortiq ko'rsatkich Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan va Surxondaryo viloyatlariga tegishli. Farg'ona viloyati respublika bo'yicha eng ko'p shaharchaga ega viloyat sifatida e'tirof etiladi. Qishloq aholi punktlariga tegishli raqamlarning eng katta ko'rsatkichlari qishloqlar soni mingtadan ortiq bo'lgan Samarqand va Buxoro viloyatlariga tegishli ekanligini ko'ramiz. Boshqa viloyatlarda ham qishloq aholi punktlarining soni ancha ko'p.

Aholi punktlari miqdori haqidagi ma'lumotlar, hududlarda aholi joylashuv tizimlarining rivojlanish istiqbollari, viloyatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, geoekologik sharoitining o'zgarishlarini qiyosiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ayni vaqtda aholi punktlari miqdoridagi nisbatlar hududlarda aholi soni, zichligi, xo'jalik yuritish tarzi haqida xulosa chiqarishga yordam beradi.

Mamlakat hududida aholi joylashuvidagi hududiy tafovutlar urbanizatsiya jarayoni, tabiiy resurslardan foydalanish, tarixiylik, tabiiy sharoitning xo'jalik rivojlanishiga ijobiy ta'siri kabi omillarga muvofiq namoyon bo'ladi. Qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan tog' oralig'i vodiylari, daryo del'talari, vohalarda aholi zichligi va aholi punktlari sonining yuqoriligi tabiiy hol, agar O'zbekistonning tabiiy sharoiti va agroiklimiy xususiyatlari hisobga olinsa, aholining hududiy joylashuvidagi tafovutlar haqida tasavvur qilish mumkin.



SHunga ko'ra, mamlakatda aholi joylashuvida ko'p jihatdan tarixiylik va tabiiy sharoitning xo'jalik rivojlanishga ijobiy ta'siri kabi omillar katta o'rin tutadi. XX asr davomida shaharlar sanoat markazlariga aylandi va ularda aholi soni doimiy ravishda o'sib borishi, ko'plab foydali qazilma konlarining ochilishi, transportning rivojlanishi, hamda cho'llarning o'zlashtirilishi natijasida yangi aholi punktlarining bunyod qilinishi, tabiiy resurslardan foydalanish va urbanizatsiya jarayonining ta'sirini kuchaytirdi.

Binobarin, respublika aholi joylashuv tizimlarini tasnif qilishda quyidagi tartibdan foydalanish mumkin.

- qadimdan dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan qishloqlar va qadimiy shaharlar;
- foydali qazilma konlarining ochilishi va transportning rivojlanishi natijasida bunyod qilingan sanoat va transport tugunlari;
- O'zlashtirilgan cho'l hududlarida bunyod qilingan aholi punktlari.

Bu tasnif mamlakatdagi aholi punktlarining funktsional – genetik xususiyatlari, shakllanishi davri, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni haqida xulosa chiqarishga yordam beradi.

Bunday tasnifdagi aholi punktlari barcha viloyatlarda mavjuddir, ularning vujudga kelishi tabiiy hududlarning geoeologik shart-sharoitlariga bog'liq bo'lib, aholi punktlarini cho'l, adir, tog' va tog' oldi tekisliklari kabi mintaqalar bo'yicha yoki tabiiy, hamda sun'iy sug'orish tizimidan foydalanish xususiyatlari bo'yicha ajratish mumkin. Respublika aholisining hududiy taqsimoti, viloyatlar aholi soni va zichligi o'rtasidagi tafovutlar aynan yuqorida ko'rsatilgan omillarga bog'liqdir.

Ko'rinib turibdiki, aholi soni va zichligi yuqori bo'lgan mintaqalar asosan kishilarning qadimdan xo'jalik yuritib kelayotgan hududlarga to'g'ri keladi. Bunda nisbatan yaqin o'tmishda o'zlashtirilgan hududlarda joylashgan viloyatlar, xususan Jizzax viloyati aholi zichligi bo'yicha oxirgi o'rinlarda turadi, lekin bu holni Navoiy, Buxoro yoki Qoraqalpog'iston R. kabi katta cho'l hududlarida joylashgan mintaqalar bilan bir qatorda ko'rmaslik kerak, zero Jizzax viloyatining cho'l qismi

o'zlashtirilgan va aholining xo'jalik faoliyati to'la shakllantirilgan. SHuning uchun aholi joylashuv tizimlarini va aholi, hamda tabiiy muhit munosabatlarini tekislik, tog' va tog' oldi hududlari bo'yicha o'rganish joylarda aholi joylashuv xususiyatlarining o'ziga xos qirralarini ochib beradi.

## 2-jadval

### Respublika aholisining viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)

| Mintaqalar                            | Maydoni<br>km. kv | Umumiy<br>aholi<br>soni.<br>ming<br>kishi<br>(2009) | Aholi<br>zichli<br>gi<br>1 km <sup>2</sup><br>ga<br>kishi | SHahar<br>aholisi | Qishloq<br>aholisi | Urbanizat<br>siya<br>darajasi<br>% |
|---------------------------------------|-------------------|-----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------|-------------------|--------------------|------------------------------------|
| O'zbekiston<br>Respublikasi<br>(jami) | 448,9             | 27533,4                                             | 61,3                                                      | 14 236,0          | 13297,4            | 51,7                               |
| SHu jumladan:                         |                   |                                                     |                                                           |                   |                    |                                    |
| Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi      | 166,591           | 1615,7                                              | 9,7                                                       | 814,6             | 801,1              | 50,4                               |
| Viloyatlar                            |                   |                                                     |                                                           |                   |                    |                                    |
| Andijon                               | 4,235             | 2499,9                                              | 590,2                                                     | 1338,9            | 1161,0             | 53,6                               |
| Buxoro                                | 40,32             | 1588,8                                              | 39,4                                                      | 616,8             | 972,0              | 38,8                               |
| Jizzax                                | 21,2              | 1116,8                                              | 52,6                                                      | 526,8             | 589,9              | 47,4                               |
| Navoiy                                | 110,985           | 839,2                                               | 7,6                                                       | 416,7             | 422,6              | 49,6                               |
| Namangan                              | 7,440             | 2217,2                                              | 298,0                                                     | 1434,1            | 783,1              | 64,7                               |
| Samarqand                             | 16,8              | 3061,5                                              | 182,2                                                     | 1145,8            | 1615,8             | 37,4                               |
| Sirdaryo                              | 4,280             | 703,4                                               | 164,3                                                     | 290,7             | 412,7              | 41,3                               |
| Surxondaryo                           | 20,1              | 2033,8                                              | 101,2                                                     | 756,2             | 1277,6             | 37,2                               |
| Toshkent                              | 15,260            | 2552,6                                              | 167,3                                                     | 1278,3            | 1274,3             | 50,1                               |
| Farg'ona                              | 6,781             | 3022,1                                              | 499,4                                                     | 1776,2            | 1245,9             | 58,8                               |
| Xorazm                                | 6,051             | 1530,7                                              | 253,0                                                     | 523,9             | 1006,9             | 34,2                               |
| Qashqadaryo                           | 28,6              | 2563,6                                              | 89,6                                                      | 1116,8            | 1446,8             | 43,6                               |

Manba: O'zR. Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Aholi joylashuv tizimlarini cho'l, adir, tog' va tog' oldi tekislik zonalari bo'yicha tasniflash orqali, bu aholi punktlarida tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, binobarin xo'jalik tizimining shakllanishi, aholining

atrof – muhitga qanchalik ta'sir ko'rsatayotganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Aholi punktlarini iqtisodiy rayonlar va ular tarkibiga kiruvchi viloyatlarga tegishli tumanlardagi aholi punktlarini tabiiy hududlarda joylashishi bo'yicha tasnif qilishning ayni vaqtda ilmiy va amaliy ahamiyati juda kattadir. Chunki, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan aholining turmush tarzini muvofiqlashtirish mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy mezonlaridan biri bo'lib qoladi.

3-jadval

**Respublika mintaqalarining tabiiy hududlarda joylashishi bo'yicha taqsimlanishi**

| <b>Mintaqalar</b>               | <b>Tumanlar soni</b> | <b>Tabiiy hududlarda joylashgan tumanlar soni va ulushi</b> |          |                          |          |                              |          |
|---------------------------------|----------------------|-------------------------------------------------------------|----------|--------------------------|----------|------------------------------|----------|
|                                 |                      | <b>Tekislik, cho'l</b>                                      | <b>%</b> | <b>tog' va tog' oldi</b> | <b>%</b> | <b>Har ikkala hududlarda</b> | <b>%</b> |
| O'zbekiston Respublikasi (jami) | 158                  | 111                                                         | 70,3     | 35                       | 22,1     | 12                           | 7,6      |
| SHu jumladan:                   |                      |                                                             |          |                          |          |                              |          |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 14                   | 14                                                          | 100      | 0                        | 0        | 0                            | 0        |
| Viloyatlar                      |                      |                                                             |          |                          |          |                              |          |
| Andijon                         | 14                   | 9                                                           | 64       | 5                        | 36       | 0                            | 0        |
| Buxoro                          | 11                   | 11                                                          | 100      | 0                        | 0        | 0                            | 0        |
| Jizzax                          | 12                   | 4                                                           | 33,4     | 3                        | 25       | 5                            | 41,6     |
| Navoiy                          | 8                    | 7                                                           | 87,5     | 0                        | 0        | 1                            | 12,5     |
| Namangan                        | 11                   | 3                                                           | 27       | 8                        | 73       | 0                            | 0        |
| Samarqand                       | 14                   | 7                                                           | 50       | 3                        | 21,4     | 4                            | 28,6     |
| Sirdaryo                        | 8                    | 8                                                           | 100      | 0                        | 0        | 0                            | 0        |
| Surxondaryo                     | 14                   | 8                                                           | 57,1     | 5                        | 35,7     | 1                            | 7,2      |
| Toshkent                        | 15                   | 11                                                          | 73,3     | 4                        | 26,7     | 0                            | 0        |
| Farg'ona                        | 15                   | 12                                                          | 80       | 3                        | 20       | 0                            | 0        |
| Xorazm                          | 9                    | 9                                                           | 100      | 0                        | 0        | 0                            | 0        |
| Qashqadaryo                     | 13                   | 8                                                           | 61,6     | 4                        | 30,8     | 1                            | 7,6      |

Respublika viloyatlariga tegishli tumanlardagi aholi punktlarining tabiiy hududlar bo'yicha joylashuvini birinchi navbatda umumiy tarzda, viloyatlar tarkibidagi tumanlarning soni va hududiy ulushi bo'yicha ko'rsatib o'tish mumkin.

Respublika viloyatlari tarkibidagi tumanlarning tabiiy hududlarda joylashishi bo'yicha tuzilgan bu jadval, avvalo tabiiy geografik nuqtai nazardan rayonlashtirishdan birmuncha farq qiladi, chunki bu jadvalda tumanlardagi xo'jalik tarmoqlarining shakllanishi va aholining tabiiy sharoitga mos turmush tarzidan, shuningdek aholi punktlarining shakllanish xususiyatlari birinchi navbatda hisobga olingan. Ta'kidlab aytilganidek turli tabiiy hududlarda aholining turmush tarzi tabiiy sharoitga mos shakllanadi. Garchi ba'zi mintaqalar, masalan Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyatidagi barcha tumanlarni tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan deyish mumkin bo'lsada, hududlarning o'zlashtirilishi, aholi punktlarining rivojlanishi va aholining xo'jalik tarzi ularni farqlashga asos bo'ladi.

Jadvaldagi har ikkala hududlar, ya'ni tog' va tog' oldi, hamda tekislik yoki cho'l hududlarini o'z ichiga oluvchi tumanlar bo'yicha raqamlarga e'tibor qaratish orqali, bunday hududlar tadqiqot ob'ekti bo'lgan Jizzax viloyatida son jihatdan ortiq ekanligini ko'ramiz. Darhaqiqat, bunday tumanlarda aholi joylashuv tizimlari o'ziga xos tavsif va tadqiqotga molik, zero hududlar tabiiy sharoiti va resurslaridan foydalanish imkoniyatlari bir-biridan keskin farq qiladi. Bunday tumanlarda aholi punktlari rivojlanishida va aholi joylashuvida tafovutlar kuchli tarzda namoyon bo'ladi, aholi turmush tarzi va tabiiy muhit o'rtasida hududiy nomuvofiqliklar, muammolar kelib chiqishi mumkin. Ayni hududlar Jizzax va Samarqand viloyatidan boshqa mintaqalarda juda kam.

Respublika mintaqalarini aholi yashash tizimlarining tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlariga ko'ra tasniflash, mamlakat aholisini hududiy tashkil etishning har tomonlama ma'qul yo'llarini topish va joriy etish uchun asos bo'ladi.

## **II - BOB. AHOLI MANZILGOHLARINING HUDUDIY TUZILMALARI VA ULARNING RIVOJLANISHI**

### **2.1. Aholining hududiy joylashuv tizimlari**

Aholi punktlari aholi joylashuvining va xo'jalik faoliyatining hosilasi sifatida turli ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik omillar ta'sirida shakllanadi. Avvalo aholining er yuzida tarqalishi va turli tabiiy sharoitlarga muvofiq xo'jalik tizimini, binobarin joylashuv tizimlarini shakllantirishi, hududiy rivojlantirish keyingi bosqichlarda hududlardagi aholi punktlari turlarining shakllanishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi aholining hududiy joylashuvi jarayonidan kelib chiquvchi ijtimoiy hodisadir. SHunga ko'ra aholi punktlarining turli hududlarda shakllanishiga ta'sir etuvchi va rivojlanishini belgilovchi omillar aholining hududiy joylashuvini belgilovchi omillar bilan mushtarakdir. Demak aholi punktlarining turli mintaqalardagi tafovutlarini tahlil qilish mohiyatan aholining turli hududlarda joylashuvini tahlil qilish bilan barobardir. Yer yuzida hozirgi kunda inson qadami va ta'siri sezilmaydigan hududlar qolmagan, lekin bir joyda avlodlar almashinuvi davomida muqim istiqomat qilishi va xo'jalik faoliyatini shakllantirish uchun bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadiki, bu hol er yuzida kishilar yashaydigan hududlar doirasini toraytiradi va asosiy joylashuv mintaqalarini hosil qiladi.

Yer yuzida aholi juda notekis joylashgan. Butun aholining 70% ga yaqin qismi quruqlikning 7% qismida yashaydi. SHu bilan bir vaqtda odam yashaydigan quruqlikning yarmiga yaqinida aholining o'rtacha zichligi  $1\text{km}^2$  ga 5 kishidan kam to'g'ri keladi. Aholi tomonidan butunlay o'zlashtirilmagan erlar quruqlik maydonining 15% ini tashkil etadi. Insonlar tomonidan o'zlashtirilmagan yoki zaif o'zlashtirilgan erlar asosan tabiiy sharoit noqulay o'lkalardir.

Aholi joylashuviga 4 omil ta'sir ko'rsatadi.

Birinchisi – tabiiy sharoit. SHubhasiz, sahro, muzlik zonalari, tropik o'rmonlar, baland tog'liklar kabi hududlar kishilar xayoti uchun qulay sharoitga ega emas. Bunday hududlar barcha materiklar va qit'alarda mavjud ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, albatta bunday joylar aholining doimiy yashamaydigan yoki qisman faoliyat eritadigan hududlariga kiradi. Masalan Osiyo qit'asida, baland tog'li mintaqalarda ham aholi qadimdan yashab keladigan va turli shakldagi aholi punktlari vujudga kelgan joylar bor, bundan tashqari sahrolarda ham aholi ko'chmanchi tarzda hayot kechiradi. Bunday hududlarda aholi zichligi juda siyrak bo'lsada ma'lum darajada aholi punktlari shakllangan va ular tabiiy sharoitga muvofiq bunyod qilinganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Tadqiqot mavzusi aholi punktlarining turli tabiiy sharoitlarda shakllanishini o'rganish bo'lganligi uchun har qanday aholi siyrak hududlarda ham aholi punktlarining shakllanish jarayoni e'tiborga olinishi zarur. Binobarin hozirgi kunda tabiiy sharoit qulay bo'lgan hududlardagi aholi punktlarining shakli va xususiyatlari bir-birlariga o'xshash bo'lib ular orasidagi farqlar asosan aholiga yaratilgan qulayliklarning texnologik darajasi bilan belgilansa, aholi an'anaviy turmush tarzi bilan yashab keladigan sharoiti noqulay va aholi siyrak joylashgan bunday hududlardagi aholi punktlarining shakllanishi xususiyatlarini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi, zero yuqorida ta'kidlanganidek, aholi punktlari, ayniqsa, qishloqlar xalqlarning milliy – etnik qiyofasini, qadryaitlarini o'zida aks ettiradi. SHunga ko'ra shimol xalqlari, sahrolarda, baland tog'liklar va tropik o'rmonlarda yashovchi oz sonli xalqlarning turar joylari, uylarining shakllari va xususiyatlari haqida so'z yuritilganda, ularni tabiiy sharoitga muvofiq taqqoslash va xulosa chiqarish qadimda aholining tabiiy sharoitga qanchalik moslashganligi haqida tasavvur qilishimiz mumkin bo'ladi.

Osiyo sahrolari, dashtlarida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi va tundra zonasida yashovchi xalqlarning turar joylaridagi o'xshashlik belgilari ularni qurishda ishlatiladigan materiallar, va shaklidir. CHorvadorlar o'tovlarining shakli cho'l va dasht tabiati uchun mukammal yechimga ega,

shamollar va yog'in sochindan sovuq va issiqqa chidash beruvchi material - jundan bosilgan kigiz qoplama asosiy ahamiyatga egadir. Ayni material sahrolarning qattiq sharoitida odamlarning faoliyat yuritish uchun imkoniyat bergan. SHimol xalqlarida qoplama material siaftida hayvon terilari ishlatilgan. Ikkala holatda ham uy tayanchini engil va oson yig'iladigan yog'och va suyaklar tashkil qiladi.

Ikkinchi – quruqlikda odamlarning tarqalishiga tarixiy xususiyatlarning ta'siri. Zamonaviy odamlarning shakllanishi 40-30 ming yil oldin Janubiy-g'arbiy Osiyoda, SHimoli-sharqiy Afrika va Janubiy Yevropada boshlangan. Bu hududlardan odamlar Eski dunyo bo'ylab tarqalganlar. Eramizdan oldingi 30 va 10 ming yilliklar oralig'ida odamlar SHimoliy va Janubiy Amerikaga tarqalganlar, bu davr oxiriga kelib Avstraliyaga ham o'tganlar. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, er yuzida odamning paydo bo'lishi va tarqalishi haqida ilmiy bahslar hamon davom etmoqda. Bu borada ikki xil yondashuv bo'lib, birinchisi odamlarning ya'ni "homo sapiens" ning bundan 50 ming yillar oldin qadimgi gominidlardan bitta hududda, aynan SHarqiy Afrikada ajralib chiqqanligi va shu erdan Er yuziga tarqalganligi (monotsentrizm) bo'lsa, ikkinchisi odamlarning Er yuzidagi turli rayonlarda paydo bo'lganligi (politsentrizm) haqidagi fikrlardir. Har ikki fikr uchun ham o'ziga xos dalillar mavjud. Qadimgi odamlarning manzilgohlari turli qit'alarda topilgan. Er yuziga insoniyatning tarqalishi uzoq yillar davom etganligi, bu tarqalishning murakkab geografik yo'nalishlarga ega ekanligini hisobga olsak, bu borada tadqiqotlar hali ko'p davom etishi mumkinligiga amin bo'lamiz. Er yuzi aholisining qadimgi manzilgohlaridan topilgan buyumlarga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, odamlar Er yuziga uzluksiz tarqala borganligini ko'ramiz. Monotsentrik nazariya bo'yicha qadimgi odamlar paleolit davrining oxirida Afrikadan Yevropa va Osiyoga undan Bering bo'g'ozi orqali Amerikaga, Janubiy-SHarqiy Osiyo orqali Avstraliya va Okeaniyaga tarqalgan. Aholining tarqalishi va uzluksiz ko'chib yurishiga asosan qulay tabiiy sharoit va oziq-ovqat topish tashvishi majbur qilgan. Er yuzida odamlarning ko'payishi, oziq-ovqat topishning yangi usullari kishilarning o'zlariga ma'qul kelgan hududlarda muqim

joylashishlariga sabab bo'lgan. Agar qadimgi davrlardagi odamlarning ko'chib yurishiga yuqorida ta'kidlangan omillar sabab bo'lgan bo'lsa, kishilik jamiyati rivojlanishining keyingi bosqichlarida yangicha sabablar paydo bo'ldi va Er yuzi aholisi tarkibining murakkablashuviga sabab bo'ldi.

Uchinchi – zamonaviy demografik vaziyatdagi xalqlar (masalan, Bangladeshda mamlakat hududi kichik bo'lganligi uchun aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 750 kishiga to'g'ri keladi).

To'rtinchi – Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitning kishilar xayotiga ta'siri. Bu ta'sirning bir ko'rinishi sifatida aholining ko'pchilik qismining dengiz va okean qirg'oqlari bo'ylab joylashishi tendentsiyasida ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'riflangan omillar mamlakat va xalqlarning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi natijasida murakkablashib boradi, kishilarning uzluksiz ko'chib yurishga majbur etadi.

Aholi joylashuvini tavsiflash, asosiy xususiyatlar haqida aniq tasavvur hosil qilishda ikki ko'rsatkich – aholi zichligi va shahar hamda qishloq aholisining tafovuti ajratib ko'rsatiladi.

Aholi zichligining ko'rsatkichi – bu aholining maydonga nisbatini ifodalovchi matematik hisobigina emas. Unda xo'jalikning umumiy ahvoli va yo'nalishi, u yoki bu tipdagi tabiiy sharoitning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati uchun yaroqliligi aks etadi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda aholi o'rtacha zichligi shahar aholisi salmog'ining yuqoriligi tufayli erlardan foydalanishni aks ettirmaydi. SHuning uchun ko'pincha umumiy zichlikdan tashqari, qishloq aholisining zichligi alohida aniqlanadi. Buni butun mamlakat hududi yoki qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan va foydalanishga yaroqli hududlarga nisbatan ham olish mumkin.

Yer yuzasida aholi juda notekis joylashgan. Zichligi ming kishidan ortiq bo'lgan gavjum hududlardan tashqari, odam umuman yashamaydigan hududlar ham mavjud. Inson tomonidan o'zlashtirilmagan hududlar quruqlikning 15% ni tashkil etadi. Bunday joylarga qutbyoni hududlar (doimiy yashash hududlari 78<sup>0</sup>



shimoliy kenglikdan janubda va 54<sup>0</sup> janubiy kenglikdan shimolda joylashgan). Ba'zi baland tog' mintaqalari aholidan xolidir. (Bunga dengiz sathidan 5000 metr balandlikdagi barcha hududlarni kiritishimiz mumkin). SHuningdek Markaziy, Janubiy-g'arbiy Osiyo va SHimoliy Afrikaning ulkan sahrolari ham odam yashamaydigan joylardir.

#### 4-jadval

##### Er yuzi aholisining balandlik mintaqalarida taqsimlanishi. (S. Bruk )


| Dunyo hududlari                                        | Dengiz sathidan balandlik |           |            |             |             |                   | YAshash hududi-ning oʻrtacha balandligi | Hududi-ning oʻrtacha balandligi |
|--------------------------------------------------------|---------------------------|-----------|------------|-------------|-------------|-------------------|-----------------------------------------|---------------------------------|
|                                                        | 200 m dan past            | 200-500 m | 500-1000 m | 1000-1500 m | 1500-2000 m | 2000 m dan baland |                                         |                                 |
|                                                        | aholi % da                |           |            |             |             |                   |                                         |                                 |
| Yevropa                                                | 68,8                      | 23,5      | 7,2        | 0,5         | -           | -                 | 170                                     | 300                             |
| Osiyo                                                  | 56,5                      | 23,5      | 11,7       | 4,9         | 2,5         | 0,9               | 320                                     | 950                             |
| Afrika                                                 | 32,5                      | 24,1      | 20,8       | 13,8        | 6,8         | 2,0               | 590                                     | 750                             |
| SHimoliy Amerika                                       | 46,9                      | 33,3      | 7,9        | 4,1         | 4,0         | 3,8               | 430                                     | 700                             |
| Janubiy Amerika                                        | 42,3                      | 15,0      | 22,8       | 4,7         | 4,2         | 11,0              | 645                                     | 580                             |
| Avstraliya va Okeaniya                                 | 72,9                      | 17,8      | 8,4        | 0,9         |             | -                 | 95                                      | 350                             |
| Butun quruqlik (Antarktida va Grenlandiyadan tashqari) | 56,2                      | 24,0      | 11,6       | 4,4         | 2,3         | 1,5               | 320                                     | 725                             |

Er yuzi aholisining ko'pchiligi tekisliklarda istiqomat qiladi. Insoniyatning  $\frac{3}{4}$  qismi dengiz sathidan 500 m balandlikkacha bo'lgan pasttekislik va tekisliklarda joylashgan. Bunday hududlar esa quruqlikning 27,8 % ni tashkil etadi. Yevropa, Avstraliya va Okeaniyada bunday hududlarda aholining 9/10 qismi yashaydi. Afrika va Janubiy Amerikada aholining anchagina qismi dengiz sathidan 500-1500 m (mos ravishda 34,6 va 27,5%) bo'lgan hududlarda istiqomat qiladi. Boliviya, Afg'oniston, Efiopiya, Meksika va Peruda aholining 2/3 qismi dengiz sathidan 1000 m balandlikda yashaydi. Niderlandiya, Polsha, Frantsiya, YAponiya, AQSH

va boshqa qator davlatlarda barcha aholi punktlari 500 m. lik chegaradan yuqoriga ko'tarilmagan. (Niderlandiyada aholining 2/5 qismi dengiz sathidan past bo'lgan joylarda yashaydi).

Aholining balandlik mintaqalari bo'ylab notekis joylashishiga yana bir sabab Er yuzi quruqlik qismlaridagi o'rtacha balandliklarning turlicha ekanligidir. (Osiyoda 950 m, SHimoliy Amerikada 700-750 m, Yevropada 300 m). Ammo bu aholining notekis joylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy sabab emas. Masalan, Osiyo qit'asida o'rtacha balandlik Amerikanikidan yuqori, lekin aholisining ko'pchiligi pasttekisliklarda yashaydi. Bu holatni Osiyo balandlik mintaqalarining yaxshi o'zlashtirilmaganligi bilan tushuntirish mumkin. shuning uchun ham Osiyo aholisining  $\frac{3}{4}$  qismi Xitoy, Hindiston, Hindixitoy va boshqa mintaqalarning ulkan pasttekisliklarida nihoyatda zich holatda yashamoqda. Buni YAponiya misolida ham ko'rishimiz mumkin. Aholisining son jihatdan ortiqligi kuzatilgani holda Er yuzasining katta qismi dengiz sathidan 500 m balandlikda joylashganligiga qaramay, bu hududlarda aholi zichligi past, 1000 m balandlikda esa deyarli odamlar yashamaydi.

1-diagramma



YUqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib aholi punktlarining shakllanishiga kishilarning xo'jalik faoliyatini doimiy olib borishi mumkin bo'lgan hududlarda yuzaga keladigan omillar ta'sir etadi degan xulosaga kelishimiz

mumkin. Jamiyat taarqqiyotining turli davrlarida ijtimoiy boylikning tshplanish hududlari turli tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarda taqsimlangan va yirik davlatlar, imperiyalarning vujudga kelishiga olib kelgan, bu esa o'z navbatida aholi punktlarining yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tabiiy sharoit omili aholining yashash tarziga doimo ta'sir ko'rsatar ekan, aholi punktlarining hududiy shakllanishiga ham uzluksiz ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Tabiiy sharoit omillarining ta'siri jamiyat taraqqiyoti va ishlab chiqarish usulining takomillashuviga mos ravishda turli darajada namoyon bo'ladi. Masalan, kishilarning oziq – ovqat va boshqa ehtiyoj mahsulotlarini etishtirish darajasidagi taraqqiyot bosqichida tabiiy sharoit omillarining ta'siri kuchli bo'lgan. Buni qadimiy tsivilizatsiyalarning faqat yirik daryolar quyi qismida shakllanganligi misolida ko'rdik. Kishilarning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish doirasi daryodan suvni bevosita chiqara olish masofasi bilan belgilangan. SHu bilan birga boshqa hududlarga suvni etkazib borish ham, er yuzasining tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari tabiiy sharoitning boshqa omillari ham insonlarning o'z xo'jalik faoliyatlari uchun eng qulay bo'lgan joylardagina o'rnashib doimiy yashash hududlarini tashkil qilishiga sabab bo'lgan edi. Texnika taraqqiyoti, fanning yutuqlari va jamiyat tajribasi aholining avval noqulay hisoblangan hududlarga ham tarqalishiga va aholi punktlarini bunyod qilishiga olib keldi va bu holat texnologik taraqqiyot darajasida kengayib boraveradi. Endilikda odamlar uchun eng noqulay bo'lgan tabiiy sharoitli hududlarda ham yirik aholi punktlari, shaharlar tizimlari mavjud.

Binobarin, aholi punktlarining shakllanishiga ta'sir etgan tabiiy sharoit omillarini tarixiy nuqtai nazaridan quyidagi tarzda keltirish mumkin:

- Tabiiy suv havzalari va ularning ta'sirida vujudga kelgan unumdor tuproqli hududlar;
- Dengiz bo'ylaridagi kemalar to'xtashi uchun eng qulay bo'lgan qirg'oqlar;

- Quruqlikdagi savdo yo'llarining atrofidagi tabiiy suv havzalarining mavjudligi;
- Er yuzasining tuzilishi va balandlik mintaqalarida aholi xo'jalik faoliyati uchun etarli sharoitga ega hududlar;
- O'simlik qoplami, asosan keng bargli o'rmonlar zonasi;
- Er osti foydali qazilmalarining topilishi.

Zamonaviy aholi punktlarining shakllanishi tabiiy sharoit omillariga butunlay bog'liq emas. Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasidagi davlatlar o'z tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyati mavjud hududlarda barcha talablarga javob beradigan shaharlar bunyod qilish salohiyatiga egadirlar. Ayniqsa, foydali qazilma konlarining katta zahiralarini topilgan joylar, yoki sun'iy sug'orish tizimini vujudga keltirish natijasida o'zlashtirilgan cho'l va dasht zonalarida hozirgi kunda aholi punktlarining turli shakllari mavjud. Lekin bu aholi punktlari ham tabiiy sharoit omili hisobga olingan holda qurilishi talab etiladi.

## **2.2. Shaharlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi umumiy geografik omillar**

Jahon urbanizatsiyasining rivojlanish bosqichlari 20-asrda yangi mezonlarga ega bo'la bordi. Urbanizatsiyaning ikkinchi bosqichida aglomeratsiya va megalopolislarning shakllanishi, hamda ishlab chiqarish jarayoniga alohida ta'sir ko'rsata boshlashi ta'kidlangan. Aglomeratsiya va megalopolislar iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi va urbanizatsiyaning yangi bosqichiga yo'l ochadi.

Aglomeratsiya – lotincha «aglomerat» to'planish degan ma'noni bildiradi va shahar aholi punktlarida ishlab chiqarish vositalari, ya'ni korxonalar, shuningdek mehnat resurslarining taqsimoti jarayonida shakllanadi. Aglomeratsiyalar mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining bir mezoni sifatida qaraladi.

Megalopolis so'zi qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlari ichida yuksak rivojlanishga ega bo'lgan Megapolis shahri nomidan olingan bo'lib, hozirda ulkan

shahar ma'nosida ishlatiladi. Bir so'z bilan aytganda Megalopolis aglomeratsiyalar aglomeratsiyasidir.

SHahar aglomeratsiyalari shaharlarning bir-biriga hududiy jihatdan yaqinlashib borishi va iqtisodiy ijtimoiy bir butunlikni vujudga keltirishidir. SHahar aglomeratsiyalarining hosil bo'lish jarayoniga quyidagicha izoh beriladi:


*YIRIK SHAHAR YOKI BIR-BIRIGA YAQIN JOYLASHGAN BIR NECHA SHAHAR BAZASIDAGI HUDUDIIY VA IQTISODIIY HOSILA.*

Aglomeratsiya uchun sanoat va boshqa ishlab chiqarish sohalarining yuksak darajada kontsentratsiyalashishi va shu munosabat bilan malakali kadrlar, ilmiy hamda o'quv muassasalari ob'ektlarining to'planishi, injenerlik va kommunikatsiya tizimlarining umumiyliigi, aholining o'ta zichligi va boshqa xususiyatlar xarakterlidir.

Aglomeratsiyalar rivojlangan urbanizatsiya bosqichining yuqori darajasi bo'lib, uning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ahamiyati nihoyatda yuqoridir. Aglomeratsiyalar shakllanishida ikki xil tip ajratiladi:

1. Monotsentrik – bunda aglomeratsiyalar bitta yirik shahar atrofida yo'ldosh shaharlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikning rivojlanishi kuzatiladi.
2. Politsentrik – aglomeratsiya hosil bo'lishida markaziy o'rinni bir-biriga teng bo'lgan bir necha shahar egallaydi.

**2 -chizma**



SHahar aglomeratsiyalarining rivojlanishida turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Lekin eng avvalo yirik shaharlarning hududiy jihatdan o'sib borishi xususiyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Har bir shahar o'z yuridik chegarasiga ega bo'lib, shahar aholisi ushbu chegara ichida istiqomat qiladi. Masalan Toshkent shahrining yuridik chegarasini Xalqa yo'li tashkil etadi. SHahar aholisining ko'payib borishi barobarida shahar tipidagi qurilishlar yuridik chegaradan avvalo bosh radial yo'llar bo'ylab, keyinchalik ular o'rtasini to'ldirgan holda o'ta boshlaydi. SHu tarzda shaharning asl chegarasi ma'muriy chegaralardan ancha uzoqqa kengayib ketadi. Bu chegaralar nomutanosibligi shahar xo'jaligini boshqarishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. SHahar ma'muriyati shaharning ma'muriy chegara doirasidagi aholinigina emas, balki shahar atrofida istiqomat qiluvchi, mayatniksimon migratsiya qiluvchi ya'ni ertalab shaharga ishga kelib, so'ngra shahar tashqarisidagi uyiga qaytib ketuvchi kishilarni ham oziq-ovqat, transport va xizmatlar bilan ta'minlashga majbur bo'ladi. Bu muammolar echimi ikki usul bilan hal etilishi mumkin: birinchidan shaharning ma'muriy chegaralarini shahar tipidagi qurilishlar chegarasigacha kengaytirish; ikkinchidan shaharga xos xarajatlarga shahar va shahar atrofi aholisining teng ishtirokini tashkil qilish.

Agar shaharning yuridik chegaralarini kengaytirish imkoniyati cheklanib qolsa, shahar o'z atrofidagi qishloq va shahar atrofi hududlarini yutib yubora boshlaydi hamda yo'ldosh shaharlar bilan qo'shilib ketadi. Bunda bir-biriga yaqin joylashgan aholi punktlari bir-butun umumiy transport infrastrukturasini hamda iqtisodiy bog'liqlikni hosil qiladi. Ayni holda har bir aholi punktining yuridik chegaralari faqat qog'ozdagina mavjud bo'lib qoladi, aslida esa mayatniksimon migratsiya doirasi bilan belgilanadi. SHuning uchun ham aglomeratsiyalar aholisini hisoblashda turli variantlar sodir bo'ladi.

Zamonaviy shaharlarning o'sishi va rivojlanishi eng avvalo iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liqdir. Bu aglomeratsiya iqtisodiyoti deb ataladi. Muayyan hudud doirasida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning to'planishi o'z-o'zidan

ishlab chiqarishdagi va transport xarajatlarining qisqarishi hisobiga qo'shimcha daromadlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bunda mahsulotlarning optimal hajmda ishlab chiqarilishi va sotuvchi hamda oluvchilarning yaqinligi asosiy omillardir. SHu bilan birga maydonning kengayishi va aholi sonining ortib borishi hisobiga yuzaga keladigan iqtisodiy yutuq to'g'risida ishlab chiqarish va transport xarajatlarining bir-biriga mos kelishi chegarasigacha saqlanib qoladi. Aglomeratsiyalarda bir qancha muammolar, xususan ekologik muammolarning o'tkirlashuvi hisobiga aglomeratsiya aholisining shahar chetlariga ko'chib o'tishi kuchayib boradi. Bu suburbanizatsiya hodisasi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Suburbanizatsiya turli omillar natijasida kuchayib aglomeratsiyalar chegarasining bir-biriga yaqinlashib borishiga va qo'shib ketishiga sabab bo'ladi. AqSH da aniq kuzatiladigan bu hodisa megalopolislarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Megalopolislar – maydon va iqtisodiy salohiyat jihatidan nihoyatda ulkan aholi punktidir. Dunyodagi eng yirik megalopolis Tokaydo bo'lib, YAponiyaning yirik aglomeratsiyalari Tokio, Nagoya, Kioto, Osaka, Kobe shaharlaridan tashkil topgan. AqSHdagi BosVash megalopolisi 40 ta aglomeratsiyadan hosil bo'lgan va Bostondan Vashingtongacha 1000 km masofaga cho'zilgan. SHuningdek AqSHda CHiPits(CHikago-Pittsburg), San-San(San-Frantsisko-San-Diego) megalopolislari mavjud. Yevropadagi eng yirik megalopolislar Angliya(London, Manchester, Birmingem, Liverpul) va Reyn kabilar bo'lib, unga Reyn daryosining quyi oqimida joylashgan Germaniya, Niderlandiya va Belgiyadagi shaharlar kiritiladi.

Shunday qilib, aglomeratsiyalarning shakllanishiga birinchi navbatda shaharlarning hududiy o'sib, borishi sabab bo'ladi. Shaharlarning hududiy o'sishi esa o'z navbatida bir qancha iqtisodiy ijtimoiy va tabiiy omillarga egadir. Bu omillar mamlakatda mavjud resurslardan foydalanish, aholining migratsion harakati, tabiiy o'sishi, iqtisodiy inqiroz yoki yuksalish kabi hodisalarga bog'liq ravishda aglomeratsiyalarning shakllanishiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Har holda shahar aglomeratsiyalarining tashkil topishida bir qancha shartlar bor. Ushbu

shartlar amalga oshgan taqdirda aglomeratsiyalar rivojlanish salohiyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shahar aglomeratsiyalari monotsentrik hamda politsentrik shakllanish xususiyatiga egadir. Monotsentrik aglomeratsiyalar aksariyat hollarda qadimgi shaharlar yoki poytaxt shaharlar negizida vujudga keladi. Muayyan hududda asrlar davomida rivojlanib kelgan shahar ushbu hudud uchun qadimiy markaziy o'ringa ega bo'ladi va bu o'rin, hududning iqtisodiy taraqqiyoti davomida yangi tarmoqlarning vujudga kelishi barobarida yanada ahamiyatliroq bo'lib boraveradi.

Turli sharoit va tabiiy resurslar salohiyatiga ega hududlarda shakllanadigan aholi punktlarining umumiy xususiyati ularda aholi turmush tarzi va xo'jalik faoliyatining shakllanishidir. Binobarin, aholi punktlarining tasniflanishi har qanday sharoitda aholi soni va xo'jalik yuritish tarziga asoslanib o'tkaziladi. Xususan, jamiyat taraqqiyotining texnologik darajasi yuqori o'ringa chiqqan hozirgi kunda aholi punktlarining mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati eng muhim o'rinda ko'riladi. Har qanday tabiiy sharoitga ega hududlarda aholi punktlarini yuqori darajada texnologiyalar bilan ta'minlangan, aholi yashashi uchun barcha qulayliklari mavjud joyga aylantirish mumkin. Lekin ta'kidlash joizki bunday shahar yoki boshqa ko'rinishdagi aholi punktini bunyod qilishda ham tabiiy sharoit omili albatta hisobga olinadi. Shunga ko'ra ilm-fan taraqqiyoti qanchalik yutuqlarga erishib, kishilarning yashash huudlarini qanchalik noqulay sharoitli hududlargacha etkazishga imkon bersada, aholi doimiy yashaydigan joyni bunyod qilishda tabiiy sharoit omili e'tiborga olinishi kerak bo'lgan birinchi omil bo'lib qolaveradi.


### **2.3. SHahar va qishloqlarning o'zaro ta'siri, umumiy va xususiy muammolari**

Xo'jalikning territorial joylashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari har bir rayon uchun aholi punktlarining muayyan formalarini vujudga keltiradi. Shuning uchun, mamlakatlarda industrial yoki agrar xo'jalik tizimining etakchiligi



urbanizatsiya darajasi bilan muvofiq baholanadi. Boshqacha qilib aytganda xo'jalik tizimi mamlakatda aholi punktlari shakllanishi bilan uyg'unlashgan holda bo'ladi. Ushbu jarayonni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

### 3-chizma




Aholi punktlarining xo'jalik tizimi bilan bog'liq shakllanish tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi, binobarin shahar va qishloq aholi punktlarini tiplashtirishni turli ko'rinishda qabul qilish mumkin, bunda ishlab chiqarish ixtisosligi asosiy o'rin tutadi.

Professor V. V. Pokshishevskiy aholi punktlarining quyidagi 6 ta formasini dunyo bo'yicha keng tarqalgan formalar hisoblaydi: **1) Qishloq aholi punktlarining yoyilgan (tarqoq) formasi.** Bunda odatda, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi o'z hovlisi (qyrg'onida) mehnat qilib yashaydi. qishloq aholisining tarqoq formasida, odatda, bir yoki bar necha oiladadn iborat aholi punktlarida yashashiga hozirgi paytda AQShning ayrim rayonlarida keng tarqalgan fermalar misol bo'la oladi; **2) Qishloqlar.** Bu formada qishloq aholisi gruppagruppa bo'lib yashaydi. Bu forma dunyoning barcha mamlakatlarida keng tarqalgan. qishloqlarning katta-kichikligi ekin ekiladigan massivlarning katta-

kichikligiga, taraqqiy etgan qishloq xo'jalik tarmog'ining ko'p yoki kam mehnat talab qilishiga va boshqa momentlariga bog'liq bo'ladi. **3) Shaharlar** - aholi punktlarining ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi, hozirgi zamonda aholining eng keng tarqalgan yashash formasidir. SHaharlarni o'rganish katta tadqiqot ishlarini talab etadi. SHaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy markazlaridir. **4) Shahar darajasiga etmagan sanoatlashgan aholi punktlari – posyolkalar.** Bunday aholi punktlari ko'proq tog'-kon sanoati bilan bog'liq holda vujudga keladi (shaxtyorlar va konchilar, neftchilar yashaydigan posyolkalar). **5) Ko'makchi xarakterga ega bo'lgan aholi punktlari.** Bunday aholi punktlari aholisining soni kam bo'lib, shaharlarga ham, qishloqlarga ham kiritilmaydi. Vaqt nuqtai nazaridan bunday aholi punktdlari ijtimoiy territorial mehnat taqsimoti kuchli taraqqiy etgan keyingi davrlarda vujudga kela boshlagan. Masalan, kasalxona, sanatoriy, turizm rivojlangan, ilmiy muassasalar joylashgan va shahar hamda qishloqlardan tashqarida bo'lgan alohida aholi punktlari ana shunday ko'makchi punktlardir; **6) Ko'chmanchi xalqlarning yashash formalari.** Ko'chmanchi xalqlarda, odatda, doimiy aholi punktlari bo'lmaydi, ular vaqtincha turish uchun alohida joylarda yashaydilar.

#### 4-chizma



Turli xil aholi punktlari bir-biri bilan aloqada bo'lib, turli territorial sistemalarni vujudga keltiradi. Aholi punktlarining territorial sistemalari (hududiy tizimlari) qishloqlarning tabiiy – xo'jalik rayonlari yoki shaharlarning sanoat yonalishlari bo'yicha ishlab chiqarish aloqadorligi, shuningdek shahar va qishloqlarning mahsulot va mehnat resurslari orqali o'zaro bog'lanishi jarayonida shakllanadi. Mamlakatda ishlab chiqarish va mehnat resurslarining aloqadorligi qanchalik to'g'ri tashkil qilingan bo'lsa aholi punktlarining hududiy tizimlari shunchalik tugal shakllanadi.

Professor Semyovski xilma-xil shakllarni e'tiborga olmasdan er sharidagi qishloqlarni asosan ikkita katta tipga bo'ladi.

***1. qishloq aholi punktlarining kompakt tipi.***

***2. qishloq aholi punktlarining tarqoq tiplari.***

Bunday tiplar barcha mamlakatlarda u yoki bu darajada uchraydi. Ko'pchilik mamlakatlarda bu tiplarning ikkala tiplari ham uchraydi.

Kompakt tipli qishloqlar deganda qishloq aholisining uylari bir-biriga yaqin va birmuncha rejali ravishda qurilgan, aholi soni jihatidan katta, ijtimoiy mehnat taqsimotining darajalari sezilarli shakllangan aholi punktlari tushuniladi.

Tarqoq tipli qishloqlar deganda esa, fermalar, xutorlar, ovullar ko'rinishidagi aholi punktlari nazarda tutiladi va ko'p jihatdan bu qishloqlar mamlakat iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida turlicha rol o'ynaydi. Bunday tipdagi qishloqlar asosan tabiiy geografik sharoit ta'sirida vujudga keladi.

Qishloqlarda ijtimoiy mehnat taqsimotining vujudga keliishi asosan dehqonchilik va chorvachilikning turli tabiiy sharoitga mos yo'nalishlariga bog'liqdir. qishloqlarning hududiy joylashuvi ulardagi tabiiy sharoitning turlicha ekanligi hududiy mehnat taqsimotini shakllantiradi. Qishloq xo'jaligida erdan foydalanish va xo'jalikning ixtisoslashuvi va tabiiy sharoitning zonal xususiyatlari bilan bog'liqdir. Professor Kovalyov sobiq Ittifoqdagi qishloqlarning zonal xususiyatlarini ajratib ko'rsatgan edi. SHunga asoslanib, O'zbekistondagi qishloqlarni quyidagi xususiyatli aholi punktlariga ajratishimiz mumkin:

- **Yaylov chorvachiligi va dehqonchilik bilan bog'liq zonal qishloq aholi punktlari.**
- **Asosiy yaylov chorvachiligi rivojlangan rayonlardagi aholi punktlari.**
- **Mahsuldorligi yuqori qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan vohalar, tog' oldi tekisliklari, tog'larning pastki yonbag'irlaridagi aholisi zich joylashgan qishloq aholi punktlari.**

Qishloqlarni bunday zonalarga ajratish va ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlash shuning uchun ham muhimki, iqtisodiy geografik rayonlashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish aynan shunday tahlillarga tayanadi. Yuqorida ko'rsatilgan zonalarining O'zbekiston hududida qay darajada joylashganligini o'rganish orqali respublika yerlarining qishloq xo'jaligida qanday o'rin tutganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Qishloq aholi punktlarini klassifikatsiya qilish yoli tabaqalashtirish ularni turli xususiyatlari bo'yicha guruhlariga ajratish demakdir. Qishloqlar eng avvalo aholi punktlari sifatida aholi soniga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

Qishloqlar uch asosiy sinfga bo'linadi:

- kichik qishloqlar (aholisi 1000 kishigacha);
- o'rta (1000-3000 kishi)
- katta (3000 kishi va undan ortiq).

Maxsus tadqiqotlarda qishloqlarni quidagi sinflarga ajratish mumkin:


- ❖ Mayda qishloqlar – aholi soni 500 kishigacha;
- ❖ Kichik qishloqlar – 500-1000 kishi;
- ❖ O'rta qishloqlar – 1000-3000 kishi;
- ❖ Katta qishloqlar – 3000-5000 kishi;
- ❖ Yirik qishloqlar – 5000 kishidan ziyod.

Bunday guruhlashtirish aholining xo'jalik faoliyati va uning hududiy ta'sir doirasini belgilashda yordam beradi va shuningdek mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Qishloqlarni geografik tadqiq qilish va kartaga tushirish tabiiy hududlarga bog'liq ravishda shakllanishi asosida guruhlashtirishni taqozo etadi. Bunda qishloqlar tog' va tekisliklar, cho'l va vohalar shahar atrofi, balandlik mintaqalari, suv havzalariga bog'liq hududlarda joylashganligi bo'yicha tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

## 5-chizma

### Aholi punktlarini klassifikatsiya qilish sxemasi



Qishloqlarni geografik tadqiq qilishga doimo tabiiy sharoit nuqtai nazaridan yondashish ta'kidlanadi, chunki tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar xo'jalik tizimining shakllanishiga ta'sir etadi va bevosita qishloqlarning katta-kichikligi, funksional-genetik tipini belgilaydi.

Shaharlar o'z ko'lamiga ko'ra 3 kategoriyaga bo'linadi: katta, o'rta va kichik. Biroq bu tushunchalar tarixiy – geografik nuqtai nazardan nisbiydir. Turli

davrlarda iqtisodiy geografik o'zni ahamiyatining o'zgarishi yoki biron ijtimoiy hodisa (masalan urushda vayron bo'lishi, kasallik epidemiyasi) tufayli yirik hisoblangan shaharlar inqirozga uchrab yoki taraqqiyotdan orqada qolib ketishi natijada kichik shahar holida qolishi mumkin. SHuningdek ayni vaqtda aholi punktlarining katta-kichikligini belgilovchi omillar turli mamlakatlarda turlichadir. Har holda shaharlarning katta-kichikligini belgilovchi umumiy mezon juda zarurdir.

O'zbekistonda aholisi 100 mingdan ortiq bo'lgan shaharlar katta, 50 dan 100 minggacha bo'lgan shaharlar o'rta, 50 ming kishigacha aholisi bo'lgan shaharlar kichik shaharlar hisoblanadi. Maxsus ilmiy tadqiqotlarda shaharlar klassifikatsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

- I. 10-20 ming – kichik shaharlar**
- II. 20-50 ming – «yarim o'rta» shahar**
- III. 50-100 ming – o'rta shahar**
- IV. 100 – 250 ming –katta shahar**
- V. 250-500 ming – yirik shahar**
- VI. 500-1000 ming – eng yirik shahar**
- VII. 1000 ming va undan ortiq - millioner shahar**

SHaharlarning bunday miqdoriy ko'rsatkichlari ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. Masalan I toifa shaharlari ko'pincha temir yo'l stantsiyalari yoki kichik resurs shaharchalaridan tashkil topsa, II shaharlar asosan resurs shaharlari, III toifa shaharlarining deyarli barchasi tumanlarning ma'muriy markazlaridan iborat. Bunday shaharlar qisman IV toifada ham bor. Ammo V toifa shaharlarining barchasi viloyat markazlaridir.

SHu tarzda shaharlar ierarxiyasi vujudga keladi. Ierarxiya shakli qancha to'g'ri va to'la bo'lsa, mamlakat yoki boshqa bir hudud ham ijtimoiy iqtisodiy jihatdan shunga muvofiq bo'ladi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda **Zipfa-Styuart qoidasi** mavjud bo'lib, u hudud shaharlarining bir tartibda to'g'ri joylanishini nazarda tutadi. Masalan, ikkinchi shahar birinchi shahar aholisining yarmi,

uchinchi shahar shahar uning  $\frac{1}{3}$  , to'rtinchisi  $\frac{1}{4}$  aholisiga ega bo'lishi kerak. Biroq bu g'oya hayotda to'laligicha o'z isbotini juda kam holda topgani uchun u gipoteza darajasida talqin qilinishi mumkin.

SHunga qaramay, yuqoridagi qoida ma'lum ahamiyat kasb etadi. Har qalay mamlakat o'z shaharlar turi, tarkibi va tizimini ana shunday zanjirsimon, pog'onasimon tartibda shakllantirishga harakat qilishi va o'zining mintaqaviy siyosatida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Sababi – mamlakat aholisining ko'pchilik qismini uning bir yoki ikki yirik shahrida to'planishi ham (**shaharlar gipertrofiyasi deyiladi**), yoki aksincha aholining juda ko'p mayda shaharlarda tarqalishi ham yaxshi emas. Tabiiyki, ikkinchi holda mamlakat hududiy iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan bo'ladi.

SHaharlar ierarxiasini piramidasimon ham tasavvur qilish mumkin. U yoki bu hudud uchun tuzilgan piramida ayni paytda turli yiriklikdagi shaharlar rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni aks ettiradi.

SHaharlar klasifikatsiyasida «birinchi» va «ikkinchi» shahar tushunchalari mavjud. Masalan, O'zbekistonning birinchi shahri uning poytaxti Toshkent bo'lsa, uning ikkinchi darajasida hozirgi vaqtda Namangan da'vogarlik qilmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan shaharlar kattaligi bo'yicha keltirilgan bo'lib, bu tartib yillar davomida o'zgarib boraveradi zero, O'zbekiston shaharlarida bunyodkorlik ishlari ko'plab olib borilishi natijasida shahar aholisi soni ham to'xtovsiz o'sib bormoqda.

SHaharlar funktsiyasi deganda shaharning mamlakat yoki xalqaro miqyosda bajaradigan vazifasi, ishlab chiqarishdagi o'rni va h.k lar tushuniladi. Har bir shahar o'z funktsiyasiga ega bo'lib, bunday funktsiyalar ma'muriy-hududiy, siyosiy-iqtisodiy, fan, rekreatsiya funktsiyalari bo'lishi mumkin. SHaharning ma'muriy hududiy funktsiyasi muayyan ma'muriy birlikdagi o'rni bilan belgilanadi. M: viloyat markazlari.

**Respublikamizda yirik shaharlar 17 ta bo'lib ularning aholisi 100  
mingdan ortiq, Bular:**

-жадвал

| <b>№</b> | <b>Shahar nomi</b> | <b>Aholi soni<br/>(ming kishi 2012 yil)</b> |
|----------|--------------------|---------------------------------------------|
| 1        | <b>Toshkent</b>    | 2150.3                                      |
| 2        | <b>Namangan</b>    | 418.6                                       |
| 3        | <b>Samarqand</b>   | 363.9                                       |
| 4        | <b>Andijon</b>     | 359.5                                       |
| 5        | <b>Nukus</b>       | 259.3                                       |
| 6        | <b>Buxoro</b>      | 240.8                                       |
| 7        | <b>Qarshi</b>      | 219.0                                       |
| 8        | <b>Qo'qon</b>      | 206.5                                       |
| 9        | <b>Farg'ona</b>    | 187.1                                       |
| 10       | <b>Marg'ilon</b>   | 169.4                                       |
| 11       | <b>Chirchiq</b>    | 141.3                                       |
| 12       | <b>Jizzax</b>      | 139.1                                       |
| 13       | <b>Urganch</b>     | 135.2                                       |
| 14       | <b>Angren</b>      | 131.5                                       |
| 15       | <b>Termiz</b>      | 125.3                                       |
| 16       | <b>Navoiy</b>      | 122.9                                       |
| 17       | <b>Olmalik</b>     | 119.1                                       |

Siyosiy boshqaruv funktsiyasi poytaxt shaharlarga tegishlidir. Iqtisodiy funktsiyasi shaharda turli sanoat tarmoqlarining mavjudligi transport yo'llarining o'tganligi, xalqaro portlarning mavjudligi, yirik bank, savdo markazlarining mavjudligi kabilar bilan belgilanadi. Shaharning rekreatsion funktsiyasi tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda kishilar sog'ligi va dam olish uchun qulayligi, qadimiy madaniyat markazi ekanligi kabi shartlarni o'z ichiga oladi. Ilm-fan



shaharlari maqomi shaharlarda yirik o'quv maskanlari, ilmiy tadqiqot markazlari mavjudligini hisobga olgan holda beriladi.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarning mavjudligi bo'yicha bir funktsiyali, ikki funktsiyali yoki ko'p funktsiyali shaharlar ajratiladi.

O'zbekistondagi shaharlar bajaradigan funktsiyalariga ko'ra 5 kategoriyaga bo'linadi:

6-chizma



Bajaradigan funktsiyasi turli yo'nalishda bo'lishiga qaramay dunyodagi yirik shaharlarning aksariyati tarixiy ijtimoiy jihatdan eng muhim yo'nalishlari nomi bilan ataladi. M: Xalqaro moliyaviy markaz, kurort shaharlar, universitet shaharlari, port shaharlar va h.k.

SHaharlarning genetik xususiyatlari funktsional tiplari bilan bog'liq holda shaharning vujudga kelish jarayonida ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni bilan bog'liqdir. Bunday xususiyatlarni biz zamonaviy shaharlarning aniq ko'ra olamiz. M: konchilar shahri.

Yirik shaharlarning genetik xususiyatlarini tarixiy jihatdan qaysi yo'nalishlar bilan bog'liq ekanligiga qarab aniqlash mumkin. Bunda shaharning barpo etilishiga asosiy ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy iqtisodiy omillar, shahar atrofi hududidagi tabiiy

resurslar va shaharlarning turli tarixiy davrlarda qanday ahamiyatga ega bo'lganligiga qarab xulosa chiqarishimiz mumkin. SHahar genetik tipini aniqlashda shahar toponimikasi ham katta ahamiyatga egadir.

SHaharlarning funktsional genetik tiplariga ko'ra quyidagi umumiy atamalar mavjud: poytaxt shaharlar, sanoat shaharlari, port shaharlar, universitet shaharlar, kurort va boshqalar.

### **III– BOB. AHOLI MANZILGOHLARI HUDUDIY TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Aholi manzilgohlarining hududiy va ijtimoiy muammolari va ularni hal etish masalalari**

Jamiyat taraqqiyoti hamisha tabiat bilan aloqadorlikda kechgan va bu bog'liqlikning murakkablashuvi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarga o'tishi bilan belgilanadi.

Insoniyatning xo'jalik faoliyati tabiatni izchil o'zlashtirish tarixidir. Eng avvalo mavjud resurslardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish, so'ngra dehqonchilik va chorvachilik natijasida etishtirish, fan – texnikaning taraqqiyoti natijasida mahsulot yaratish bosqichlarida xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'sir etish va o'zgartirish jarayoni kuchayib boradi. Shubhasiz, bu jarayonda aholi punktlarining shakli, vazifasi va ahamiyati ham takomillashib, o'ziga xos o'ringa ega bo'ladi.

Agar ilk bosqichlarda aholi punktlarining tabiiy muhitga mos ravishda shakllanishi va rivojlanishi kuzatilsa, keyingi bosqichlarda, asosan sanoat rivojlanishi davridan aholi punktlarining shakli va ahamiyatida xo'jalikdagi o'zgarishlar singari tubdan yangilanish ro'y beradi. Bu holatni turli bosqichdagi aholi punktlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tavsiflash orqali aniqlash mumkin. Masalan, birinchi bosqichda aholi punktlari sifatida manzilgohlarning ahamiyati juda past bo'lganligi, odamlarning oziq ko'p joylarga doimiy ko'chib yurganligi aholi punktlarining alohida ob'ekt sifatida rivojlanishga imkon bermaganligini ko'ramiz, ikkinchi bosqichda esa aynan “buyuk daryolar tsivilizatsiyalari” kontseptsiyasining amalga oshganligi, sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda katta qishloqlar, savdo – sotiqning rivojlanishi natijasida esa ulkan shaharlar paydo bo'lganligi ma'lum. Nil daryosining quyi oqimidagi Fiva, ikki daryo oralig'i va O'rta Er dengizi bo'yida Tir, Sidon, Nineviya kabi, Gang, Amudaryo, Xuanxe daryolari bo'ylarida shahar davlatlar, keyinchalik,

**Jamiyatning tabiiy muhitga ta'siridagi asosiy bosqichlar**

| <b>№</b> | <b>Bosqich nomi</b>                           | <b>Texnogen bosim tavsifi va ekologik oqibatlari</b>                                                                                                                                  | <b>Davri</b>                             |
|----------|-----------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| V        | Fan-texnika inqilobining zamonaviy bosqichi   | Ishlab chiqarishning texnik bazada tubdan o'zgarishi: "jamiyat-tabiiy muhit" tizimidagi keskin siljishlar                                                                             | XX asrning o'rtalaridan                  |
| IV       | Sanoat inqilobini aks ettiruvchi bosqich      | Zavod-fabrika sanoatining kuchayishi, urbanizatsiya miqyosining kengayishi: gidrosfera, atmosfera, litosfera va biosferaga har tomonlama ta'sir etish; ekin maydonlarining kengayishi | XVIII o'rtalaridan-XX asr o'rtalarigacha |
| III      | O'rta asr ishlab chiqarishi                   | Qishloq xo'jaligining takomillashuvi, o'rmonlarning kesilishi, ikkilamchi tabiiy resurslardan foydalanishga o'tish, Oykumena chegaralarining kengayishi.                              | O'rta Asrlar                             |
| II       | Qishloq xo'jaligi inqilobiga bog'liq bosqich. | Insoniyat aksar qismining erga ishlov berishga o'tishi; tabiiy landshaftlarning kam o'zgarishi.                                                                                       | 6-8 ming yil oldin.                      |
| I        | O'zlashtiruvchi xo'jalik                      | Terib-termachlab oziq topish, ovchilik va baliqchilik; insoniyatning tabiatga moslashishi.                                                                                            | 30 ming yillar oldin                     |

Bobil, Quddus, Afina, Rim kabi insoniyat tarixida juda katta rol o'ynagan shaharlarning bunyod bo'lishi odamlarning tabiatga ta'siri yanada kuchayganligi,

mahsulot ishlab chiqarishning murakkablashganligini ko'rsatadi. Bu davrda qishloq xo'jaligi asosiy o'rin tutganligi, sanoatning ilk shakllari ham ushbu tarmoqqa asoslanganligi e'tirof etiladi, binobarin tabiat va inson aloqadorligida qishloqlar muhim ahamiyat kasb etgan.

O'rta Asrlar davrida shaharlarning ahamiyati orta boradi, chunki bu davrda davlatlar o'rtasida o'zaro siyosiy munosabatlar shakllanib borgan. Ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligining o'rni katta bo'lgani holda hunarmandchilik va sanoatning qo'l mehnatiga asoslangan shakli namoyon bo'ladi. Davlatlar o'rtasida munosabatlarning murakkablashuvi, aholi sonining ortishi, milliy shakllanish jarayoni turli davlatlarda shaharlarning xalqaro aloqalar va siyosiy strategik nuqtai nazardan katta ahamiyatga egaligini ta'kidladi va urbanizatsiyaning rivojlanish yo'lini belgilab berdi.

Keyingi bosqichlarni fan-texnika yangiliklari, kashfiyotlar va ixtirolar asosida tabiiy muhit va resurslardan tobora ko'proq iste'mol mahsulotlarini yaratish davri deb atash mumkin. Ko'payib borayotgan aholi ehtiyojlarini to'la to'la va sifatli qondirishga intilish, shu orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini yuqoriga ko'tarishga erishish maqsadi, tabiatni inson xizmatiga tobora to'la safarbar etish bilan izohlanadi. Bu bosqichda shaharlar va ulardagi intensiv hayot, yangiliklarning joriy etilishi, shahar turmush tarzining shakllanishi jamiyat rivojlanishini belgilovchi omilga aylandi va ko'p millionli dshaharlar, shahar aglomeratsiyalari va megaopolislarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Endilikda aholi punktlarining rivojlanishi va kengayishi, shuningdek vazifasi ham tabiiy muhit sharoiti va resurslar salohiyatiga butunlay bog'liq bo'lmasdan, tabiiy muhitni o'zlashtirish va o'zgartirishda insonni, ta'bir joiz bo'lsa, tayyorlov bazasi bo'lib xizmat qiladi. Yirik aholi punktlari esa tabiiy muhitga ta'siri jihatidan XX asrning global muammolaridan biri, ekologik muammoning asosiy manbalaridan biri bo'lib qoldi. Yirik shaharlar masalasi tabiiy muhit va jamiyat aloqadorligida alohida o'rin egallaydi. Chunki, bunday aholi punktlarida tabiiy muhitga ta'sir va aholi turmush tarzining ijtimoiylashuvi natijasida qator

muammolar paydo bo'ladiki, ular faqat yirik shaharga tegishli bo'lgani holda inson va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikda salbiy natijalarni namoyon qiladi. Binobarin yirik shaharlarda sanoat va ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos rivojlanishi quyidagi muammolarni yuzaga chiqaradi:

1. **Demografik muammo** – shaharlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, turli yo'nalishdagi tarmoqlarning shakllanishi shaharga ko'chib keluvchilar miqdorining oshishiga sabab bo'ladi. SHahar aholisi tez ko'paya boradi, shaharga ish izlab kelgan kishilar turar joy muammosini vujudga keltirishadi va shaharning turli hududlarida iqtisodiy jihatdan nochor aholining alohida yashash rayonlari paydo bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlardagi yirik shaharlarda bunday rayonlar shaharlarning asosiy hududlaridan ham yiriklashuvi kuzatiladi. Natijada qashshoq urabnizatsiya deb ataladigan holat yuzaga keladi.
2. **Ijtimoiy psixologik muammolar** – shahar turmush tarzining bir tomonlama rivojlanib ketishi natijasida shahar aholisining turli qatlamlari vujudga keladi. Turli sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi shaharliklarning turmush tarzlarida o'ziga xos tafovutlar vujudga kelishi mumkin. Bu tafovutlar shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini boshqarishda noto'g'ri yo'l tutilishi oqibatida yuzaga keladi. Bundan tashqari shaharga tashqaridan ko'plab kishilarning ko'chib kelishi va noqonuniy joylashish hamda faoliyat ko'rsatish orqali ham shakllanadi. Bunday muammolarning o'tkirligi ayniqsa yirik shaharlarda sezilarli va dolzarbdir.
3. **Ekologik xarakterdagi muammolar** – Bu muammolar eng keng qamrovga ega bo'lib, shahar obodonchiligi, shahar transporti, aholining gigiena sanitariya qoidalariga to'liq rioya qilishi, aholi sog'ligini saqlash muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining shahar muhitiga ta'siri kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu muammolardan ayniqsa, ekologik xarakterdagilari o'ziga xos bo'lib, doimo yangicha qirralarni namoyon qila boradi. SHahar aholisining atrof-muhitga

munosabati va tabiiy sharoit omillari bunday muammolarning turli darajada namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy fan-texnika yutuqlari har qanday tabiiy sharoitga ega hududlarda aholi punktlarini bunyod qilish imkonini beradi. Kelajak shaharlari sifatida okeanda suzib yuruvchi, yer ostida, yuqori balandliklarda, hatto kosmik fazoda bunyod qilinadigan shaharlar loyihalari taklif qilinmoqda. Lekin masala tabiiy muhit omillarining ayni vaqtdagi mavjud shaharlar xavfsizligi va aholi salomatligiga qanchalik daxl qilishi ustidadir. YAqinda bo'lib o'tgan zilzila qadimiy Tokio shahriga katta zarar etkazdi. Bunday kuchga ega bo'lgan tebranish yoki tsunami yana qachon ro'y berishi esa noma'lum. Umuman olganda hech qaysi ulkan shahar tabiiy omillar ta'siridan butunlay xoli emasligi, bir necha yillar davomida tasdig'ini topmoqdaki, aholi necha asrlardan beri yashab kelayotgan shaharlarga oldin ro'y bermagan suv toshqinlari, kuchli shamollar va tornadolar, tsunami va zilzila, shuningdek vudlqon otilishlari xavf solmoqda. Insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'sirining oqibatlari to'la hisoblab chiqilmaganligi natijasida vujudga keladigan vaziyat hamisha aholi punktlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, binobarin aholi punktlarining, ayniqsa yirik shaharlarning rivojlanishida tabiiy sharoit va tabiiy omillarning ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Tabiiy sharoit va resurslar aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishida doimo muhim o'rin tutgan. Insoniyatning tabiiy sharoitga moslashishi va tabiat bilan munosabatlarining murakkablashish jarayoni, ya'ni oziq topishdan mahsulot etishtirish, so'ngra ikkilamchi mahsulot yaratish bosqichlarida turli tabiiy sharoit va omillar jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lib borgan va aholi punktlarining kichik qishloqlardan yirik aholi punktlariga, shaharlarga, shaharlar tizimi va nihoyat aglomeratsiyalarning bunyod bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan. Turli tabiiy sharoit omillari, iqlim, rel'ef, unumdor tuproqlar, suv resurslari, er osti foydali qazilma zahiralarining mavjudligi, bundan tashqari joyning geografik o'rni aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Bu omillar esa o'z navbatida inson va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikning murakkablashuvi va bosqichlariga ko'ra turli darajada ahamiyatga ega bo'lgan. SHunga ko'ra aholi punktlarning tabiiy sharoit va resurslarga bog'liq shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- CHo'l va chala cho'l, tundra hududlarida ko'chmanchi xalqlarning muvaqqat turar joylari;
- Sug'orma dehqonchilik rivojlangan tog' oralig'i vodiylari, yirik daryo havzalari, vohalardagi gavjum qishloqlar va shaharlar;
- Foydali qazilma konlari, energetika va sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'liq sanoat shaharlari;
- Aholi qadimdan yashab keluvchi tabiiy sharoiti va geografik o'rni qulay bo'lgan dengiz bo'yi, daryo havzalaridagi yirik shaharlar va fan – texnika rivojlanishi natijasida vujudga kelgan shaharlar tizimi.

Barcha materiklar va orollar turli tabiiy sharoit xususiyatlariga ega va bu omillar shaharlar va qishloqlarning rivojlanishiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistondagi shaharlar va qishloqlarning tabiiy sharoit va omillar ta'sirida shakllanishi va rivojlanishi tavsifiga ko'ra mamlakat aholi punktlari asosan qug'orma dehqonchilik uchun qulay bo'lgan daryo vodiylari, vohalar va



yirik daryolarning quyilishi joyida shakllangan. Ulkan qumli cho'llar yoki balandlik mintaqalari doimiy aholi punktlarining shakllanishiga aks ta'sir ko'rsatadi va cheklovchi omil sifatida baholanadi. Binobarin aholi punktlarining muayyan hududdagi joylashuvini geografik jihatdan tavsif qilinganda aholi punktlarining suv havzalariga uzoqlik va balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Dunyoning barcha hududlarida hozirgi kunda tabiiy sharoitning inson yashashi uchun qulay omili suv havzalarining mavjudligi, shuningdek ekologik xavfsizlik darajasidir.

Aholi punktlarining shakllanishida asosiy e'tiborga loyiq xususiyat kishilarning xo'jalik faoliyati uchun qulay bo'lgan hududlarni tanlashlari va muqim yashash hududlarini tashkil qilish bosqichi ekanligini hisobga olinsa, jamiyat taraqqiyotining geografik manzarasi aniq tasvirga ega bo'ladi. Binobarin er yuzi aholisining tarqalish hududlari asosan dengizga yaqinlik va tekisliklar doirasida chegaralana boradi. Ta'kidlanganidek er yuzi aholisining aksariyat qismi tekisliklarda va asosan dengiz bo'ylarida zich joylashgan. Aholining tarqalish xususiyatlaridan yana biri tarixiylik bo'lib, aholi qadimdan xo'jalik faoliyatini tashkil qilgan katta daryolar del'talari va keyinchalik sanoat araqqiyoti bilan bog'liq hududlarda gavjum yashaydi. SHundan kelib chiqib er yuzida aholi punktlarining zichligini quyidagi tartibda ifodalash mumkin:

Eng zich joylashgan hududlar – mo''tadil, subtropik iqlim mintaqasidagi dengiz bo'ylari, katta daryolar del'talari, sanoat hududlari;

O'rtacha zichlikdagi hududlar – qishloq xo'jaligi rivojlangan tekislik hududlari;

Siyrak hududlar – dengiz sathidan 1000 metrdan baland mintaqalar, arid zonalar, materiklarning ichki hududlari va shimoliy mintaqalar.

O'zbekistonda aholi punktlari tog' oralig'i tekisliklari: Farg'ona vodiysi, CHirchiq-Ohangaron vodiysi, Zarafshon vodiysi, Amudaryo deltasining boshlang'ich qismida eng zich joylashgan bo'lib, balandlik mintaqalari va cho'l hududlariga borgan sari siyraklashadi. Balandlik mintaqalari bo'yicha

siyraklashish ayniqsa, Toshkent viloyatida yaqqol ko'zga tashlansa, cho'l hududlari bo'yicha siyraklashish Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida aniq ko'rinadi. Tabiiy sharoit omillarining aholi punktlari shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri hozirgi kunda ijtimoiy rivojlanish omillari bilan bog'lanib ketgan. Tabiiy resurslardan foydalanishning yangi bosqichlari, cho'llarni o'zlashtirish, sun'iy suv havzalarining bunyod qilinishi va foydali qazilma konlaridan foydalanish texnologik yuksalish bilan bog'liq ravishda takomillashmoqda va aholi punktlarining vujudga kelishida yangi bosqichni, xususan tabiiy sharoit omiliga deyarli bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Lekin e'tirof etish lozimki tabiiy sharoit omili aholi punktlariga doimo ta'sir ko'rsatadi. Masalan Yangi-Yul shahri Sirdaryo viloyatining markazi bo'lishi ko'zda tutilgan holda bunyod qilingan va rivojlantirishga harakat qilingan, lekin xovos shamoli yo'lida bo'lganligi bu erdagi aholi salomatligi va kundalik hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. SHahar qanchalik katta bo'lmasin va takomillashmasin bu tabiiy omilga qarshilik qila olmaydi. SHuning uchun ham markazning Guliston shahriga ko'chirilishi maqsadga muvofiq ish bo'lgan deb hisoblanadi.

Hozirgi kunda davriy geografik o'zgarishlar, tsiklik hodisalar o'ta takomillashgan hududlarda ham o'z kuchini ko'rsatmoqda.

Binobarin, aholi punktlarini bunyod qilishda tabiiy sharoit omillarini hisobga olish va muvofiq ravishda rivojlantirish masalasi hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Oksak ma'naviyat – engilmas kuch" T.: O'zbekiston, 2008 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston burok kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini oksaltirish-barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir.T. «O'zbekiston», 2007.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
5. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I.. "O'zbekiston iqt. va ijt. geografiyasi" . T. O'qituvchi, 1994 y .
6. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug'at. Toshkent, "O'qituvchi" 1990 y.
7. Abirqulov Q. "Jahon mamlakatlari iqt. va ijt geografiyasi" .T. 2006 y.
8. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" .T. 2002 y.
9. Barotaliev U. "Geografiya o'qitish metodikasi" (ma'ruzalar matni). Termiz, 2003 y il
10. Vahobov H., Tillaboeva M.. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T. O'qituvchi, 2001 y.
11. Kuznetsov I. "Geografiya naseleniya i xozyaystva mira " Moskva, "Drofa" 1990. uchebnik 10-klassa.
12. Maksakovskiy V. P. "Jahonning iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" 10-sinf darsligi. T. "O'qituvchi" 1995 y.
13. Nazarov A. «Ijtimoiy geografiya». T. , Universitet, 2000 y.
14. Soliev A. "SHaharlar geografiyasi". T. 2000 y.
15. Qubonniyozov R.«Geografiya ta'limi metodikasi». Urganch, 2001 y.
16. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi 8-tom Toshkent 2004 y. "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" nashriyoti
17. Internet saytlar: <http://geo.1september.ru>  
[www.geografya.ru](http://www.geografya.ru), [www.wgeo.ru](http://www.wgeo.ru)